

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**“Davlat huquqi va boshqaruvi” kafedrasи**

**Korruptsiyaga qarshi kushashish va kompleans nazorat**

**fanidan 3-kurs uchun**

**O'QUV- MODULI**

**NAMANGAN – 2023-2024**

Korruptsiyaga qarshi kushashish va kompleans nazorat fanining O'quv-moduli fanning namunaviy o'quv dasturi hamda 5240100-Yurisprudentsiya (faoliyat turi bo'yicha) ta'limi yo'nalishi o'quv rejalariga muvofiq ishlab chiqildi.

O'quv-modul "Davlat huquqi va boshqaruvi" kafedrasining 2022 yil ..... \_\_\_\_\_dagi 1-son yig'ilishida muxokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Tuzuvchi:** \_\_\_\_\_ - Namdu Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasi katta o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:** **1. M Ibragimov** - Namdu davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasi katta o'qituvchisi.

**2. I. Atamirzaev**- Namdu Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasi katta o'qituvchisi.

Mazkur o'quv – modul Namangan davlat universiteti Ilmiy uslubiy kengashining yig'ilish qaroriga asosan nashrga tasiya etilgan.

(2022 yil .... \_\_\_\_\_dagi № sonli bayonnomma)

## **1-Mavzu. Korruptsiya tushunchasi va korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini rivojlantirish.**

REJA:

1.1. Korruptsiya tushuichasi: xalqaro standart va milliy qonun hujjatlari tahlili.

1.2. Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining rivojlanishi: horijiy va milliy tajriba.

### **1.1.Korruptsiya tushuichasi: xalqaro standart va milliy qonun hujjatlari tahlili.**

**Jamiyatda shunday illatlar borki, u ma'lum bir sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladi. Davlatni ich-ichidan yemiradigan ana shunday illat – korruptsiya va poraxo'rlikdir. Aynan shu illat sababli ko'plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma'lum.**

Bugungi kunda korruptsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korruptsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

**Taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan O'zbekiston uchun korruptsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini susaytirishi bilan xavfli.**

SHu boisdan ham davlat rahbari SHavkat Mirziyoev o'z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi hujjat "**Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida**"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bo'ldi. Ushbu qonun me'yorlarining samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida Prezidentning 2017 yil 2 fevraldag'i qarori bilan "**2017-2018**

**yillarga mo'ljallangan korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi"** qabul qilindi. Dastur doirasida bir qator qonun loyihalari ishlab chiqildi, mavjudlari inventarizatsiyadan o'tkazildi. Umuman olganda, so'nggi yillarda qilingan ishlar tahlili aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korruptsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rileganini ko'rsatib turibdi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi. Albatta, bajarilgan ishlar salmoqli. Ammo biz kechagi qilgan ishimizning natijasiga mahliyo bo'lib qolsak, ertangi ishimizning yakuni biz kutganchalik bo'lmasligi tabiiy.

SHundan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni yanada o'stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rileishini taqozo qilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda bu illatga qarshi murosasiz kurashish madaniyatini shakllantirish maqsadida davlatimiz rahbari SH.Mirziyoevning shaxsan tashabbusi bilan 2017 yil 3 yanvarda O'zbekiston Respublikasining "**Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida**"gi qonuni qabul qilindi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi – davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlarining korruptsiyaga qarshi kurashishda kuch va imkoniyatlarini birlashtirib, yaxlit bir tizim yaratish hamda sohaga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish imkonini berdi.

O'tgan davr mobaynida korruptsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, unga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish

va amaliyotga tatbiq etish, sohani tartibga soluvchi huquqiy mexanizm va institutsional tizimlar yaratish ishlari izchillik bilan davom ettirildi.

### **Xalqaro hamjamiyatning korruptsiyaga qarshi kurashish**

Bu sohada davlatlararo hamkorlikning huquqiy tartib-tamoyillarini belgilash maqsadida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2003 yil 31 oktyabrdagi 58/4-sonli qarori bilan Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi xalqaro konventsiya qabul qilingan.

**Korruptsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- 2003 yil 31 oktyabrdagi qabul qilingan BMT ning Korruptsiyaga qarshi Konventsiysi;
- 2000 yil 15 noyabrdagi qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konventsiysi;
- 1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining “Korruptsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida” gi Konventsiysi;
- 1999 yil 4 noyabrdagi “Korruptsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida” gi Konventsiyalari va boshqalar.

O'zbekiston yuqorida ta'kidlangan xalqaro normalardan 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi Konventsiysi, shuningdek, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Prezidentimiz SH.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida respublikamiz hayotining muhim sohalarida izchillik bilan amalga oshirilayotgan o'zgarish, yangilanish, islohot va tashabbuslar sarhisobi qatorida o'z yechimini kutayotgan xalqaro, mintaqaviy va milliy doirada muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalar ta'kidlab o'tildi. Jumladan, respublikamizda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlarni tizimlilik asosida

muvofiglashtirish va tubdan yangilash, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korruptsiya bilan bog'liq holatlarga chek qo'yish maqsadida yangi tuzilma – Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgani ma'lum qilindi.

Davlat rahbari tomonidan yangi agentlikning xalqaro hamjamiyatga ma'lum qilinishining ahamiyati shundan iboratki, ushbu agentlik nafaqat respublikamizda korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarini takomillashtiradi, balki xalqaro doirada ham mazkur illatga qarshi kurashish borasida o'zaro hamkorlik ishlarini yangi bosqichga ko'tarib, O'zbekistonning bu yo'nalishdagi ko'p tomonlama faoliyati samaradorligini oshiradi.

2020 yil 29 iyundagi «**O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident farmoni bilan jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatini shakllantirish, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda samaradorligini takomillashtirish maqsadida maxsus vakolatli davlat organi – **Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi** tashkil etildi.**

O'zbekistonda yangi Agentlik tashkil etilganini bir qator xalqaro tashkilotlar, jumladan, **Jahon banki, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi, BMT Taraqqiyot Dasturi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotlari** yuksak mammuniyat bilan kutib olib, agentlik faoliyatini yo'lga qo'yish va agentlik zimmasidagi vazifalarni amalga oshirishda amaliy ko'mak ko'rsatishga hamda bu yo'nalishda yaqindan hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini ma'lum qildilar.

Bugungi kunda, agentlik tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikning yo'nalishlari, rivojlantirish tendentsiyalari va amalga oshirish lozim bo'lgan chora-tadbirlar rejalarini aniq belgilab olingan bo'lib, bu boradagi ishlarni jadal sur'atlarda olib borish yo'lga qo'yilgan. Xususan, agentlik faoliyatiga xalqaro standartlarni va ilg'or xorijiy tajribani tadbiq etish maqsadida bir qator xalqaro

tashkilotlar vakillari va xorijiy ekspertlar bilan muzokaralar olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad – yurtimizda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan ishlardan xalqaro hamjamiatni xabardor etish, xalqaro reyting va indekslardagi o'rnimizni yaxshilash, chet davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan tizimli hamkorlik qilishning yangi mexanizmlarini yaratishdan iborat.

**Ta'kidlash lozimki, korruptsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xusus an siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jahbalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, “Jamiyatimizda korruptsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdag'i jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida **Transparency International** xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan **“Korruptsiyani qabul qilish indeksi”** da O'zbekiston 180 ta davlat orasida 2017 yilda 157-o'rin, 2018 yilda esa 158-o'rinni egallagan bo'lsa, 2019 yilda 25 ball bilan 153-o'rinni egallab, 5 pog'onaga ko'tarildi.

Bundan tashqari, **Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korruptsiyadan holilik” indikatorida** O'zbekiston 2019 yilda 0,38 ball bilan 95-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020 yil bo'yicha 128

davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o'rinni egallab, 6 pog'onaga ko'tarilganligi mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir.

- 2020–2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplaens-nazorat") ni bosqichma-bosqich joriy etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;
- korruptsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minotni joriy etish.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korruptsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

**Korruptsiyaga qarshi komplaens nazorati** – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korruptsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korruptsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurash agentligi, Korruptsiyani oldini olish va «komplaens-nazorat» tizimini joriy etish boshqarmasi, 2-sektor rahbari **Abdug'aniev Oybek Alisherovich**.

Mamlakatimizda korruptsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir

etaryotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017–2019 yillar davomida 6127 nafar mansabdar shaxsning pora olishi bilan bog'liq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, 2019 yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdar shaxslarga nisbatan korruptsiya bilan bog'liq 590 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilganligi, korruptsiyaga qo'l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdar shaxslarning 25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxona va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korruptsiya jinoyatlarining asosan tibbiyat, ta'lim, davlat xizmati ko'rsatish, xususan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga litsenziya va ruhsat berish bilan bog'liq sohalarda hali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.

## **1.2. Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining rivojlanishi: horijiy va milliy tajriba.**

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab davlatlarda, xususan **Singapur**, **Buyuk Britaniya**, **Germaniya**, **AQSH** kabi rivojlangan mamlakatlarda “Davlat xizmati to'g'risida” gi, “Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to'g'risida” gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilarini, mansabdar shaxslar, shuningdek sudyalarining xattiharakat me'yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

E'tiborli jihat shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin bo'lgan sovg'a yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qo'yilgan. Masalan, AQSH da ushbu miqdor 20 AQSH dollarini, Frantsiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdar shaxslarning pul ko'rinishidagi sovg'alar qabul qilishi qat'iyan taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatuvchi mansabdar shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog'ozlar kabi to'lovlarini olishi ta'qiqlangan .

Bundan tashqari, bugungi kunda ilg'or xorijiy davlatlarning korruptsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo'llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda **150 dan ortiq mamlakatda** qo'llanilmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korruptsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to'qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yo'lga qo'yilgan. Korruptsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e'lon qilinishi korruptsiyaga qarshi samarali vosita ekani e'tirof etilgan.

Bu borada **Daniya** tajribasiga ko'ra, 2002 yilda qabul qilingan "Korruptsiya to'g'risida" gi Daniya Qonuni korruptsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, ta'sirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili o'z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aktsiyalarga ega bo'lishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkorligi va shaffofligini, korruptsion holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Korruptsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va ta'lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korruptsion harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bundan tashqari, **Finlyandiyada** Moliya vazirligi davlat xizmatchilari axloqining asosiy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanishi bilan xarakterlidir. Moliya vazirligi hukumat amaldorlari uchun imtiyozlar va sovg’alarni berish va olish tartibini belgilaydi, shuningdek davlat xizmatchilari daromadlarini tekshirish vakolatiga ham ega. Finlyandiya milliy taftish byurosi (NAOF) esa mamlakatda korruptsiyani oldini olish maqsadida yilda ikki marotaba markaziy hukumat moliyasini tekshiradi, soliq siyosatini nazorat qiladi va siyosiy partiyalar va saylov kompaniyasini moliyalashtirishni nazorat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar, korruptsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur turdagи jinoyatlarni oldini olish borasida mamlakatimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko’rsatmoqda:

**birinchidan**, “Davlat xizmati to’g’risida” gi Qonun loyihasi ishlab chiqilib, muhokama qilinayotgan bo’lsa-da, hali hamon mazkur Qonun qabul qilinganicha yo’q. SHu sababdan “Davlat xizmati to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini, shuningdek davlat xizmatchilarining Axloq kodeksini qabul qilish, mazkur normalarda davlat xizmatchilarining o’z faoliyatini olib borish jarayonida amal qilishi lozim bo’lgan hamda korruptsiyani vujudga kelishiga imkon yaratib beruvchi sabab va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan me’yorlar aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir;

**ikkinchidan**, xalqaro va ilg’or xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o’rgangan holda davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishni tartibga soluvchi normalarni milliy qonunchilik tizimiga implemenetatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o’z navbatida mansabdor shaxslarning mol-mulkidagi o’zgarishlarni muntazam ravishda kuzatish imkoniniyatini beradi, deklaratsiyalarning ommaviyligi, ya’ni jamoatchilik uchun ochiqligi esa ularning korruptsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini yanada oshirishi shubhasizdir.

O’zbekistonning yangilangan siyosati jamiyatdaadolat va qonun ustuvorligini oliy darajaga ko’tarish, zamonaviy samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat hizmatchilarida korruptsiyaviy holatlarning

barcha ko'inishlariga qat'iy chidamsizlik ruhiyatini shakllantirish, xalq manfaatlarini so'zsiz ta'minlash kabi yuksak g'oyalarga tayanmoqda. Avvalo, ushbu islohotlarning tub zamirida Prezident SH.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan ustuvor g'oya «**Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak**» asosiy tamoyilga muvofiq barcha imkoniyatlar xalqimiz manfaatlari yo'lida safarbar etilishi ustuvor vazifa etib belgilanmoqda.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korruptsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korruptsiyaga qarshi komplaens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korruptsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Komplaens nazorat tizimi ilk bor AQSHda 1906 yilda vujudga keldi. Bunga zaruriyat mamlakat iqtisodiyotida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompaniya va korporatsiyalarning tashkil etilishi bilan bog'liqdir.

Komplaens nazorat tizimini joriy etish bo'yicha samarali tajribaga ega mamlakatlar amaliyotiga muvofiq ushbu xizmat eng keng tarqalgan quyidagi ikkita modeli qo'llaniladi:

1.Kompaniya va tashkilot faoliyatini faqatgina mavjud o'rnatilgan ichki qonun va qoidalarga muvofiq tashkil etishga qaratiladi. Bunda komplaens xizmatini joriy etilishi minimal qoidalar bilan cheklanadi.

2.Komplaens nazorat tizimining tashkil etilishi korruptsiya xavflarni baholashda xalqaro tashkilotlarning (Bazel bank qo'mitasining tavsiyalari, Xalqaro komplaens assotsiatsiyasi) tavsiyalariga asoslanadi va bu modelda komplaens xizmatning maqomi, vazifasi, faoliyat doirasi asosan xalqaro standart va tavsiyalarga asoslanadi.

Mazkur ikki modelning o'zaro farqli jihat, birinchi modelda komplaens nazorat tizimini o'zida tashkil etayotgan kompaniya yoki tashkilot mavjud qonunlik me'yorlari yoki o'zi ishlab chiqqan ichki qoidalar bilan tartibga solinadi va joriy etishning minimal talablari bilan cheklanadi.

Ikkinci modelda esa faoliyatni tashkil etish nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro standartlar va tashkilotlarning tavsiyalari asosida joriy etiladi. Ushbu shaklda ichki qonunchilik normalarida ko'zda tutilmagan korruptsiya xavflariga faoliyat mos keladigan qo'shimcha profilaktik qoidalarni joriy etish mumkin bo'ladi.

Mazkur tajriba samaradorligi bilan ajralib turadi va asosan yirik iqtisodiy salohiyatga ega AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar amaliyotiga to'g'ri keladi.

Qonunning o'ziga xosligi shundaki, unda komplaens xizmatida kadrlar masalasiga (**compliance officer**) to'xtalib o'tilgan hamda kompaniya ichidagi korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabardor etishga (**whistleblowing policy**) aniq qoida va tartibni keltirib o'tadi.

Davlatimizning korruptsiyaga qarshi qonunchiligida komplaens nazorat tizimi amaliyotining kirib kelishi O'zbekiston Respublikasi 27.05.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmonida ushbu sohada belgilangan asosiy vazifalardan biri etib, ustav jamg'armasida davlat ulushi bo'lган korxona va tashkilotlarda qarshi kurashish choralarini kuchaytirish maqsadida korruptsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat tizimini joriy etish va uning samaradorligini tizimli monitoringini amalga oshirish vazifasi belgilandi. Ushbu normativ hujjatlar ilk bor komplaens nazorat tizimini milliy darajada joriy etish masalasi ko'tariladi.

**Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki**, davlat va xususiy sektor faoliyatida korruptsiyaga qarshi kurashish «komplaens nazorat» tizimini joriy etishning qator samarali omillarga xizmat qiladi.

Jumladan, mazkur tizim korruptsiya xavf-xatarlarini o’z vaqtida aniqlash va chek qo’yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda ularni minimum darajaga tushirishga xizmat qiladi.

### **Mavzu bo'yicha glossariylar:**

**Korruptsiya** — shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

**Manfaatlar to’qnashuvi** — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko’rsatayotgan yoxud ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o’rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo’lgan vaziyat.

Korruptsiyaga qarshi kurashishni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari:

## **KORRUPTSIYaGA QARSHI KURASHISH KONTSEPTSIYaSI**

(kontseptsiya – lotinchada “conceptio” “tushunish tizimi” ma’nosini anglatadi) – kontseptsiya korruptsiyaning rivojlanish sabablari, holati va keljakdagi darajasini, korruptsiyaga qarshi kurashning asosiy tushunchalarini, maqsadlari, tamoyillari va yo’nalishlarini aks ettiruvchi nazariy qoidalar to’plamidan iborat bo’lgan hujjat.

## **KORRUPTSIYaGA QARSHI KURASHISH HOLATI PROGNOZI**

korruptsiya, korruptsiyaga qarshi siyosat va uning natijalarini muayyan vaqt davomida rivojlanish tendentsiyalari va qonuniyatlar (sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari) ning ehtimoldagi (kelajakdagi) o'zgarishlar darajasi.

## **KORRUPTSIYaGA QARSHI KURASHISH HUQUQIY TEXNOLOGIYaSI**

jamiyatning o'ziga xos tarixiy ehtiyojlari va manfaatlari, korruptsiyaga qarshi kurash siyosatini ijtimoiy-huquqiy rivojlantirish qonuniyatlar asosida belgilangan maqsadlarga muvofiq korruptsiyaga qarshi kurashish huquqiy institutlari tomonidan samarali va oqilona qo'llaniladigan usul, yo'l hamda vositalar tizimi.

## **KORRUPTSIYaGA QARSHI KURASHNING MILLIY REJASI**

hokimiyat turli darajalarida korruptsiyaga qarshi choralarini ta'minlashga qaratilgan maxsus siyosiy va huquqiy hujjatdir.

## **KORRUPTSIYaGA QARSHI KURASHUVCHI DAVLAT ORGANI**

qonun hujjatlariga asosan faoliyati korruptsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan davlatning maxsus vakolatli organi.

O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari:

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

- 1.Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi qanday tuzilmalardan tashkil topgan?
- 2.Agentlik to'g'ridan-to'g'ri Kimga bo'ysunadi?
- 3.Agentlik kimning oldida hisobdor?
- 4.Agentlik qaysi Milliy kengashning organi xisoblanadi?

### **Mavzu bo'yicha testlar:**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ismailov B.I. Korruptsiyaga karshi kurash borasida xorijiy davlatlar amaliyoti va xalkaro standartlar tizimi shakllanishi // Ukvu kullanma. -T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Korruptsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lif markazi, YuMOM. 2019 y.
2. Ismailov B.I. Nasriev I.I. Protivodeystvie korruptsii v chastnom sektore: mejdunarodnye standarty i zarubejnaya pravoprimenitel'stva praktika. //Monografiya. -T. Akademiya General'noy prokuratury Respubliki Uzbekistan, TSPKYu, 2020. -290s.;
3. Ismailov B.I. Korruptsiyaga karshi kurash borasida xorijiy davlatlar amaliyoti va xalqaro standartlar tizimi shakllanishi // O'quv ko'llanma. -T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Korruptsiyaga karshi kurashish ilmiy-ta'lif markazi, YuMOM. 2019.-150 b
4. Ismailov B., Nasriev.I. Xorijiy davlatlarda mansabdor shaxslar aktivlarini deklaratsiya kilish.-T.: Uzbekiston Respublikasi Bosh prokuratura Akademiyasi.2019.-112 b.
5. N.Salaev, B.Xidoyatov, G.Tulaganova, S.Niyozova. Korruptsiyaga karshi kurash. O'quv qo'llanma. -Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2018. 5-23, - 101 b.

*“Hirs va ta'ma insonni ko'r va kar qiladi”*

*Jaloliddin Rumiy*

## **2- Mavzu. Korruptsiyaga qarshi kurashish soxasida xalqaro huquqiy asoslar va BMTning Korruptsiyaga qarshi konventsiyasining mazmun va moxiyati.**

### **REJA:**

- 2.1. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro huquqiy asoslarning tavsifi (BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konventsiyasi, BMTning "Davlat mansabdor shaxslarning harakatlarining Xalqaro Kodeksi", OESR tavsiyalari va boshk.).
- 2.2. BMTning Korruptsiyaga qarshi konventsiyasi mazmuni, tuzilishi, korruptsiyaning oldini olish choralar, amalga oshirish mexanizmlari, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari.

### **2.1. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro huquqiy asoslarning tavsifi (BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konventsiyasi, BMTning "Davlat mansabdor shaxslarning harakatlarining Xalqaro Kodeksi", OESR tavsiyalari va boshk.).**

Alloma Rumiy aytgan ushbu so'zlar zamirida hirs, ta'ma va u bilan teng keladigan barcha salbiy illatlar o'sha davr odamlari uchun emas balki, zamondan-zamonga o'tib, dunyo hamjamiyatining asosiy e'tibor markazidagi muammoga aylanganligiga guvohi bo'lyapmiz.

SHu o'rinda, oxirgi 20 yil ichida dunyo davlatlarida jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan korruptsiya xavfiga qarshi kurashishni ta'minlashga qaratilgan qator xalqaro-huquqiy hujjatlarga to'xtalsak. Xususan, Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloqiy kodeksi (N'yu-York, 1996 yil 12 dekabrb), Korruptsiya bo'yicha jinoiy javobgarlik konventsiyasi (Strasburg, 1999 yil 27 yanvar), Korruptsiya bo'yicha fuqaroviy-huquqiy javobgarlik konventsiyasi (Strasburg, 1999 yil 4 noyabr) va mazkur Konventsiyaga qo'shimcha protokol (Strasburg, 2003 yil 15 may), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi konventsiyasi

(2003

yil

31 oktyabry) va boshqalar.

Xalqaro-huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik asosida, mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratildi.

Davlatimizda korruptsiyaga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida 2017 yilda “Korruptsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonunining qabul qilinishi – davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlarining korruptsiyaga qarshi kuch va imkoniyatlarini birlashtirib, yaxlit tizimni yaratish imkonini berdi.

SHuningdek, 2017 – 2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi o’zining tub mohiyati bilan aynan korruptsiyani tag-tomiri bilan yo’q qilishga qaratilgan tarixiy hujjat bo’ldi. Unda barcha sohalarda korruptsiyaga barham berish, uning ildiz otishiga sharoit yaratayotgan sabablarni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar bayon qilindi.

Bundan tashqari, 2019 yilda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon bilan 2019 – 2020 yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish bo’yicha ikkinchi Davlat dasturi tasdiqlanib, bosqichma-bosqich muhim sohalarga tadbiq etildi.

Biroq jamiyatni salbiy illatlardan tozalab, ularni odamlar onidan osonlik bilan sug’irib tashlab bo’lmasligi tabiiy. Bu ham ildizi mustahkam giyohni yer bag’ridan olishdagi qiyinchilik singaridir aslida.

Bu borada kurashmoq uchun yengini astoydil shimargan davlatimiz tomonidan ko’rilib tashlab bo’lmashadi. Biroq keyingi yillarda aniq va muhim o’zgarishlarni tizimli tartibda jamiyatimizga tatbiq

etilayotgani fuqarolarimizning korruptsiyaga nisbatan murosasizlik imunitetini oshirib bormoqda.

Qarangki, bu borada kurashmoqni muhim chorasi sifatida yurtimizda, eng avvalo, hayotni yengillashtirish va odamlar uchun davlat organlari hizmat qilishi kerakligi muhim tamoyil sifatida belgilandi. Va bu xalqchil tamoyil asosida barcha pog'onadagi mansabdor va mas'ullarning odamlar ichiga kirib borish, ularning muammolarini uyma-uy yurib hal etish tizimining joriy etilgani korruptsiyaga qarshi kurashishda o'zining samarasini bera boshladи.

- Oxirgi uch yilda davlat xizmatchilarining ish haqi o'rtacha qariyb 60 foizga, ayrim sohalarda esa, bir necha barobarga oshirilib, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odobaxloq namunaviy qoidalariga asosan barcha vazirlik va idoralarda odobaxloq me'yorlari tasdiqlandi;
- davlat xaridlarining mutlaqo yangi tizimi yo'lga qo'yilib, sohada oshkorlik, shaffoflikni ta'minlash, pirovardida korruptsiyaning oldini olish maqsadida “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi;
- soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish maqsadida esa yangi tahrirdagi Soliq kodeksi amalga kiritildi. Unga muvofiq, soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi;
- ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish maqsadida barcha hududlarda davlat xizmatlari markazlari ochildi;
- davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida 2019 yil 9 dekabrda Prezidentimizning “Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruuv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, joriy yildan boshlab mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining 11 turdag'i vakolati tegishli davlat boshqaruvi organlarining

- hududiy bo'linmalariga o'tkazilib, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining 5 turdag'i vakolati chiqarib tashlandi.;
- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish uchun “Xalq qabulxonasi”, Prezident portali hamda davlat organlari va tashkilotlarining “ishonch telefon”lari joriy qilindi;
  - Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, tuman va shahar Kengashlari tarkibida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyalar tashkil etildi;
  - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan “Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” qo'shma qaror qabul qilindi;
  - normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihibarini korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishning huquqiy asoslari takomillashtirildi;
  - eng muhim, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan 30 ga yaqin qonun, 100 ga yaqin Prezident va Hukumat qarorlari qabul qilindi.

Yuqorida ayrim muhim chora-tadbirlarga to'xtalib o'tildi, aslida ushbu tizimli ishlarni jadallik bilan davom ettirishda vazirlik va idoralar hamda ularning quyi bo'g'inlarida amaliy harakatlarni olib borishga astoydil kirishilgan.

Biroq har qanday masalada davlatimiz uchun eng yaqin yordamchi odamlarning huquqiy ongi va madaniyatining yuksaligidir. Zero, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo'lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi bugungi kun qoidasining muhim shartidir.

## **BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING TRANSMILLIY UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA QARSHI KONVENTSIYASINI RATIFIKATSIYA QILISH TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konventsiyasi quyidagi axborot, bildirish va bayonotlar e'tiborga olingan holda ratifikatsiya qilinsin:

### **Konventsiya 2-moddasining a) bandi bo'yicha axborot**

O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 29-moddasining to'rtinchı qismiga muvofiq ikki yoki undan ortiq shaxsning birqalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi.

### **Konventsiya 2-moddasining b) bandi bo'yicha axborot**

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 15-moddasiga muvofiq jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'limgan; uncha og'ir bo'limgan; og'ir; o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi.

Ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Uncha og'ir bo'limgan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

### **Konvensiya 2-moddasining g) bandi bo'yicha axborot**

Jazo turi sifatida mol-mulkni musodara qilish O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan Qonuniga muvofiq Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlangan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 284-moddasiga ko'ra jinoyat narsasi bo'lган mol-mulk, basharti avvalgi egasiga qaytarib berilishi lozim bo'lmasa, sud hukmi bilan davlat egaligiga o'tkaziladi.

### **Konvensiya 5-moddasining 3-bandи bo'yicha axborot**

O'zbekiston Respublikasi ushbu bilan ma'lum qiladiki, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga muvofiq tavsiflash belgilari va ayrim turdag'i jinoyatlar bo'yicha javobgarlik darajasiga ko'ra uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan jinoyatlar og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat toifalariga kiritiladi.

### **Konvensiyaning 7-moddasi bo'yicha axborot**

O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuning 38-moddasiga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning operatsiyalari hamda hisobvaraqlariga doir ma'lumotnomalar mijozlarga, tashkilotlarning o'ziga, prokuror, sudlarga, surishtiruv va tergov organlariga quyidagi hollarda beriladi:

a) yuridik shaxslar va boshqa tashkilotlarning operatsiyalari hamda hisobvaraqlariga doir ma'lumotnomalar ana shu tashkilotlarning o'ziga, prokuror, sudlarga, jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa, surishtiruv va tergov organlariga beriladi;

b) jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari va jamg'armalariga doir ma'lumotnomalar mijozlarning o'ziga va ularning qonuniy vakillariga; mijozlarning hisobvaraqlari va omonatlarida turgan pul mablag'lari hamda

boshqa qimmatbaho narsalar xatlanishi, ularga undiruv qaratilishi yoki mol-mulk musodara etilishi mumkin bo'lgan hollarda yuritilayotgan ishlar bo'yicha sudlarga, surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

### **Konventsiyaning 10-moddasi bo'yicha axborot**

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida yuridik shaxslarning jinoiy yoki ma'muriy javobgarligi nazarda tutilmagan.

### **Konventsiya 16-moddasining 5-bandи bo'yicha axborot**

O'zbekiston Respublikasi tutib topshirish masalalarida mazkur Konventsiya qatnashchilari bo'lgan boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilishda ushbu Konventsiyani huquqiy asos deb hisoblaydi. Biroq bu qoida O'zbekiston Respublikasining ushbu Konventsiya qatnashchisi bo'lgan alohida davlatlar bilan tutib topshirish to'g'risida ikki tomonlama shartnomalar tuzish imkoniyatini istisno etmasligi lozim.

### **Konventsiya 18-moddasining 13 va 14-bandlari bo'yicha bildirish**

#### **13-band bo'yicha**

O'zbekiston Respublikasi tomonidan o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimoslarni qabul qilish va yo'nalishi bajarish, yoki bajarilishi uchun ularni vakolatli organlarga yuborishga mas'ul markaziy organ sifatida O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi belgilangan.

#### **14-band bo'yicha**

O'zbekiston Respublikasi maqbul til sifatida rus tilini belgilaydi.

### **Konventsiya 35-moddasining 3-bandи bo'yicha bayonot**

O'zbekiston Respublikasi o'zini ushbu Konventsiya 35-moddasining 2-bandи qoidalari bilan bog'liq deb hisoblamaydi.

**2.2.BMTning Korruptsiyaga qarshi konventsiyasi mazmuni, tuzilishi, korruptsiyaning oldini olish choraları, amalga oshirish mexanizmları, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari.**

## **BMTning korruptsiyaga qarshi Konventsiyasi ishtirokchi davlatlari konferentsiyasi modeli**

9 dekabrb – Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kunini nishonlash bilan bog’liq tadbirlar dasturi doirasida Bosh prokuratura Akademiyasida BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi ko'magida yuridik sohadagi oliy o'quv yurtlari magistratura tinglovchilari o'rtasida BMTning korruptsiyaga qarshi Konventsiyasi ishtirokchi davlatlari konferentsiyasi modeli ko'rinishida “BMTning korruptsiyaga qarshi konventsiyasini amalga oshirish mexanizmi: ikkinchi bosqich tahlili” mavzusidagi tadbir bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbir korruptsiyaga qarshi kurashish strategiyasi va amaliyatini, korruptsiyaga qarshi diplomatiya va korruptsiyaga toqatsizlik madaniyatini rivojlantirish sohasidagi xalqaro standartlarni targ'ib qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Konferentsiyada korruptsiyaga qarshi Konventsiyaning II bobi qoidalari, ularning milliy qonunchilikka tatbiq etilishi, shuningdek, bir nechta xorijiy davatlarning tajribasi tahlil va muhokama qilindi.

Konferentsiyada Bosh prokuratura Akademiyasi, Qoraqalpoq davlat universiteti, Toshkentdagi xalqaro Vestminster universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, shuningdek Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura tinglovchilari ishtirok etdi.

Ushbu tadbiriga BMTning Vena shahridagi Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi Korruptsiya va iqtisodiy jinoyatlar departamenti xodimi V.Kozin, shu boshqarma eksperti V.Nesterovayte mustaqil ekspertlar sifatida jalb qilinganlar.

Konferentsiya ikki bosqichdan iborat bo'lib, raqobat ruhida o'tkazildi, shu sababli xolislikni ta'minlash maqsadida ikkala bosqich vazifalari

ishtirokchilar o'rtasida tasodifiy tanlovnini amalga oshiruvchi maxsus elektron dasturdan foydalangan holda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda delegatlar O'zbekiston Respublikasi tomonidan BMTning Korruptsiyaga qarshi Konventsiyasining II bobi 5, 7, 8, 9, 10-moddalari ijrosi ahvoli yuzasidan taqdimot qildilar.

Tadbirning ikkinchi bosqichida ishtirokchilar xorijiy davlatlar (Avstraliya, Belgiya, Germaniya, Sloveniya, Frantsiya) ning shartli vakillari sifatida qatnashib, mazkur davlatlarda BMTning Korruptsiyaga qarshi Konventsiyasining II bobi ijrosi ta'minlanishi ahvoli yuzasidan taqdimotlar bilan chiqdilar.

Ishtirokchilarning chiqishlari yakunida natijalar sarhisob qilindi va jamoalarning har biri baholandi.

Ishtirokchilar Konventsiyaning maqsadlari va vazifalari to'g'risida umumiylardan xabardorlikni oshirish, uning bajarilishi yuzasidan hisobotlarni tayyorlash, hisobot berish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun shunga o'xshash akademik loyihami muhimligini ta'kidladilar.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. “ISO 37001 - Anti-bribery management systems”// [Elektron manba]. URL: <https://www.iso.org/ru/standard/62342.html>.
2. “ISO 19600:2014 Compliance management systems-Guidelines”// [Elektron manba]. URL: <https://www.iso.org/ru/standard/62342>.
3. Bazel'skiy komitet po bankovskomu nadzoru//Rukovodstvo Printsipy korporativnogo upravleniya dlya bankov// [Elektron manba].URL: [https://www.cbr.ru/Content/Document/File/36687/Basel\\_cgbp.pdf](https://www.cbr.ru/Content/Document/File/36687/Basel_cgbp.pdf).
4. Sarbanes-Oxley Act of 2002. Corporate responsibility. // Public law 107. 204-july 30, 2002// [Elektron manba]. URL: <https://www.sec.gov/html#sox2002>. 9. Foreign Corrupt Practices Act 1977 // PL 95 - 213, Title 1; 91 Stat 1494, Dec 19, 1977// [Elektron manba].

URL: <https://www.govinfo.gov/content/pkg/statute-91/pdf/statute-91-pgl494>.

### **3- Mavzu. Korruptsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.**

#### **REJA:**

- 3.1. Korruptsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik bazasining tavsifi.
- 3.2. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RK-419-sonli Qonunining mazmuni va moxiyati.
- 3.3. O'zbekistonda korruptsiya qarshi kurashishga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarining qiyosiy tahlili.
- 3.4. "Korruptsiyasiz soxa" loyixasining joriy etilishi va amalga oshirish jarayonlari.

#### **3.1. Korruptsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik bazasining tavsifi.**

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar

Hozirgi globallashuv zamoni, mintaqalar va davlatlararo integratsiya jadallahib borayotgan murakkab bir sharoitda korruptsiya barcha mamlakatlarda ham qator muammolarni keltirib chiqarib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilib tashlash xavfini solmoqda. Binobarin, bugun kattami-kichikmi, boymi-kambag'almi, qudratlimi-kuchsizmi bironta davlatni korruptsiyadan xoli hudud, deb hech kim ayta olmaydi. O'zbekiston ham muammodan xalos bo'lмаган. Dunyodagi korruptsiya darajasini o'rganuvchi Transparency International xalqaro tashkiloti indeksida O'zbekiston oxirgi uch yilda 12 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali bu illat barham topgani yo'q.

O'tkazilgan so'rovlarda fuqarolarning fikricha, sog'liqni saqlash, ta'lim, bank, bojxona, sud, prokuratura, ichki ishlar, kommunal xizmat

sohalarida, shuningdek, fuqarolarni ishga qabul qilishda korruptsiya keng tarqalgan.

BMT va Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti korruptsiya tufayli yiliga 1,5-2,6 trillion dollargacha zarar ko'rmoqda.

SHu bois mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi keskin va murosasiz kurash olib borilmoqda. Xususan, "**Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida**"gi Qonunning qabul qilinishi, shuningdek **Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi** va **korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturining tasdiqlanishi** yurtimizda korruptsiya bilan bog'liq huquqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni samarali amalga oshirilishini ta'minladi. Misol uchun, qisqa vaqt ichida korruptsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid beshta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan, "**Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida**"gi, "**Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida**"gi, "**Jamoatchilik nazorati to'g'risida**"gi, "**Davlat xaridlari to'g'risida**"gi qonunlar qabul qilindi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yilgi "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"**gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2752-sonli qarori bilan tasdiqlangan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturi ijrosini ta'minlash borasida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan ma'lum ishlar amalga oshirildi.

Milliy markaz xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatlar shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida barcha choralar ko'rilmoxqda.

Markazda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ish rejasi ishlab chiqilgan.

Markazda qabul qilinadigan barcha buyruq va farmoyishlar bajarilishi shaxsan direktor tomonidan nazorat qilinib boriladi.

15.02.2017 yilda "**Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi xodimlari tomonidan korruptsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishini oldini olish tartibi to'g'risida**"gi **Nizom** tasdiqlandi va barcha xodimlar e'tiboriga yetkazildi.

SHu kuni tasdiqlangan "**Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi xodimlari tomonidan korruptsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishini oldini olish tartibi to'g'risida**"gi **Nizomga binoan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 3 nafar xodimdan iborat komissiya tuzilgan.** Mazkur komissiya zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining korruptsiyaga qarshi kurashishga doir ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish bo'yicha qarorlarini ijro etish;
- korruptsiyaga oid huquqbazarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;
- korruptsiya masalalari bilan bog'liq kelib tushgan ariza, murojaatlar va hujjatlarni ko'rib chiqish, natijalariga ko'ra qonuniy qarorlar qabul qilish.

Markaz va tahririyatga ishga kirayotgan xodimlar "**Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi xodimlari tomonidan korruptsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishini oldini olish tartibi to'g'risida**"gi **Nizom** va uni tasdiqlash haqidagi buyruq bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtirilib boriladi.

Markaz xodimlari orasida korruptsiyaga oid huquqbazarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligini

oshirilishini ta'minlash maqsadida quyidagi birlamchi zaruriy choralar qo'llanilgan:

**Markazda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2018-2021 yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chiqilgan.**

Xodimlarni ishga qabul qilish, xizmatni o'tash va xodimlarni rotatsiya qilish tartibi "**Jamoa shartnomasi**" hamda "**Markaz xodimlarining ichki tartib mehnat qoidalari**" asosida ta'minlanadi.

Xodimlarni ishga qabul qilish masalalari Markazning rasmiy veb-saytida e'lon qilinib boriladi.

Markazga korruptsiya masalalari bilan bog'liq jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan kelib tushadigan murojaatlar Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash bo'limi xodimlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ushbu turdag'i murojaatlar O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2018 yildagi PQ-4056 qarori va boshqa taalluqli qonun hujjatlari asosida ko'rib chiqiladi.

Markazning murojaatlar bilan ishslash faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar Markazning [www.nhrc.uz](http://www.nhrc.uz) rasmiy veb-sayti orqali muntazam yoritilib borilmoqda.

Korruptsiyaga qarshi kurashish hamda xodimlarning odob-ahloq qoidalariiga rioya etish yuzasidan Markaz saytida alohida bo'lim tashkil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2017 yilgi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomi mustaxkamlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida"gi PQ-2881-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Milliy markaz tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro.gov.uz ijro intizomining yagona boshqaruv tizimi hujjatlari va topshiriqlari, shuningdek Hukumat qarorlari va topshiriqlari

bajarilishini nazorat qilish, hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish, ijo intizomini mustahkamlash va samarali monitoring qilish maqsadida ijro.gov.uz, Ye-kalit kodi qurilmasi hamda Ye-xat elektron xizmati tizimi hozirgi vaqtda faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir huquqiy targ'ibot va ma'rifat ishlari bo'yicha har yillik kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi va ijroga qaratiladi.

Markaz tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari bilan xamkorlikni rivojlantirish va to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish bo'yicha **2017-2020 yillarga mo'ljallangan Kontseptsiya** ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu Kontseptsiya boshqa masalalar qatorida, korruptsiyaga qarshi kurashish masalalarini xam o'z ichiga qamrab olgan.

Davlat rahbarining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida korruptsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan ko'ra barvaqt oldini olishga o'tish kerakligini ta'kidlab, unga qarshi kurashishga mas'ul bo'ladigan alohida organ tuzishni taklif qilgan edi.

Oradan yarim yilga yaqin vaqt o'tib, aniqrog'i joriy yilning 29 iyun yuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturini izchil ro'yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etish bilan bog'liq "**O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**"gi PF-6013 sonli Farmoni imzolandi.

Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida shu kuni "**O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida**"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4761 sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan agentlikning

tashkiliy tuzilmasi, tashkil etilishi, xodimlari, maqomi, mehnatga haq to'lash shartlari va boshqalar tasdiqlandi.

Hozirgi kunda mazkur agentlik o'z faoliyatini boshlagan.

PF-6013 son Farmon ijrosi yuzasidan **Markazda 30 iyunъ kuni maxsus buyruq** qabul qilindi va Markaz bo'limlarining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy vazifalari belgilab berildi.

Sir emaski, barcha davlat organlari va muassasalarida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish yuzasidan juda ko'plab uchrashuvlar, seminar hamda davra suhbatlari o'tkazilmoqda. Korruptsiyaga oid huquqbazarliklarga qarshi kurashish va ularning oldini olish, bartaraf etish bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali mingga yaqin chiqishlar qilinmoqda.

Lekin ochiq aytish kerakki, bu tadbirlar korruptsiya sohasida Prezidentimizning Farmon, qarorlari belgilab bergen vazifalar ijrosini ta'minlashni to'liq qamrab olayotgani yo'q. Bu borada qilinadigan ishlar juda ko'p ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Aholining huquqiy ong, huquqiy madaniyatini oshirish borasida juda ko'p va juda xo'p gapirilmoqda. Idora va tashkilotlar, o'quv muassasalarida bu sohada o'tkazayotgan tadbirlar, tanlovlarning son-sanog'i yo'q.

Byudjet – xalq pulini o'marayotgan, pora orqasida yetti avlodiga yetadigan mol dunyo to'playotgan korruptsionerlar kim bo'lishidan qat'i nazar, prokuormi, hokimmi, vazirmi davlatimiz qonunlari oldida javob berayaptilar. Bunday holatlar hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarida ochiqdan-ochiq aytilmoqda, ko'rsatilmoqda, keng aholining e'tiboriga yetkazilmoqda. Korruptsionerlarga yuzlab jinoiy ishlar qo'zg'atilayapti. Ko'rayapmizki, qaysidir bir katta amaldor yoki xizmatchi, xodim korruptsiya botqog'iga botib, pora degan balo ortidan jazoga tortilayapti. Bugungi rivojlanib borayotgan mustaqil respublikamizning erkin va ozod hayotimizga qora dog', illat bo'lib kelayotgan korruptsiyaga qarshi kurash bugungi kunning eng dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. Bu vazifa nafaqat huquq organlari, balki har birimizdan katta mas'uliyat talab qiladi. Ota-onा,

idora rahbari, nuroniylar, yoshlar, jamoat tashkilotlari hamkorlikda bu illatga qarshi kurashda faol bo'lishimiz zarurdir.

### **3.2. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ-419-sonli Qonunining mazmuni va moxiyati.**

#### **O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING QONUNI KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH TO'G'RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 24 noyabrda qabul qilingan

Senat tomonidan 2016 yil 13 dekabrda ma'qullangan

##### **1-bob. Umumiylar qoidalar**

###### **1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonunning maqsadi korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

*Oldingi tahririga qarang.*

###### **2-modda. Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik**

Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo'llaniladi.

*(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)*

###### **3-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**korruptsiya** — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda

foydalaniishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

### *Oldingi tahrirga qarang.*

**korruptsiyaga oid huquqbuzarlik** — korruptsiya alomatlariga ega bo’lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

*(3-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O’zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O’RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)*

**manfaatlar to’qnashuvi** — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko’rsatayotgan yoxud ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o’rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo’lgan vaziyat.

### **4-modda. Korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy printsiplari**

Korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.

### **5-modda. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari**

Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi printsipini ta'minlash.

## **6-modda. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar**

Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu Qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta'minlash, korruptsiyaning holati hamda tendentsiyalaridan kelib chiqqan holda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko'rish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.



### *LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldaggi PF-6257-sonli «Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korruptsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.*

## **2-bob. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar**

## **7-modda. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari**

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi;

(7-moddaning birinchi qismi O’zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O’RQ-729-sonli Qonuniga asosan ikkinchi xatboshi bilan to ’ldirilgan — Qonunchilik ma ’lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son)

O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

Oldingi tahrirga qarang.

O’zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

(7-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O’zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 fevraldagi O’RQ-522-sonli Qonuni tahririda — O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda)

O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

Oldingi tahrirga qarang.

O’zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

(7-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O’zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O’RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma ’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo ’yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

(7-moddaning ikkinchi qismi O’zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O’RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma ’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

**8-modda. O’zbekiston Respublikasining Korruptsiyaga qarshi kurashish bo ’yicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari**

(8-moddaning nomi O’zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O’RQ-729-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma ’lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi (bundan buyon matnda Milliy kengash deb yuritiladi) tashkil etiladi.

(8-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O'RQ-729-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar (bundan buyon matnda hududiy kengashlar deb yuritiladi) qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etiladi.

(8-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O'RQ-729-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Milliy kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

(8-modda uchinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O'RQ-729-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son)

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

korruptsiyaning holati va tendentsiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

*(8-modda uchinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)*

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

hududiy kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirish.

*(8-modda uchinchi qismining to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O'RQ-729-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son)*

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi Milliy kengashning ishchi organidir.

*(8-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O'RQ-729-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son)*

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

## **8<sup>1</sup>-modda. O’zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari**

O’zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi o’z vakolatlari doirasida:

korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi;

har yili O’zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish to’g’risida milliy ma’ruza tayyorlaydi hamda uni ko’rib chiqish uchun O’zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritadi;

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining korruptsiyaga qarshi kurashishga daxldor bo’lgan qo’mitalari, Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesining tegishli qo’mitasi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlarining korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyalari bilan hamkorlik qiladi;

korruptsiyaga oid jinoyatlarni, birinchi navbatda O’zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro obro’siga putur yetkazadigan korruptsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi, uning yakunlari to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga axborot beradi;

korruptsiyaga oid jinoyatlar tufayli jamiyat va davlat manfaatlariga yetkazilgan zararning o’rni to’liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasini o’tkazish tizimi samaradorligini tahlil qiladi, ushbu tizimni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

fuqarolik jamiyati institutlari bilan birqalikda korruptsiyaning darajasini, shu jumladan hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimidagi darajasini baholovchi Korruptsiyani idrok etish milliy indeksini tuzishni tashkil etadi;

davlat xaridlari sohasida korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida davlat buyurtmachisining ISO: 37001 korruptsiyaga qarshi standartni qo'llashini nazarda tutuvchi talabni belgilaydi;

joylarda korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

korruptsiya holatlariga doir materiallarni qonunchilikda belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi;

vazirliklar va idoralarning korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, davlat organlarining, ommaviy axborot vositalarining, fuqarolik jamiyati institutlarining va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha samarali hamkorligini tashkil etadi;

ijro hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korruptsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lган taqdimnomalar kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(*8<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O'RQ-729-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son*)

#### **9-modda. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi o'z vakolatlari doirasida:

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

(*9-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda*

— *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son*)

*Oldingi tahrirga qarang.*

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

(9-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O'RQ-729-sonli *Qonuni tahririda* — *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son*)

korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korruptsiyaning holati va korruptsiyaga qarshi kurashish natijalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korruptsiya faktlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'radi;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda ishtirok etadi;

aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongi, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

korruptsiyaga oid huquqbazarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalgalashish mumkin.

(9-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

**10-modda. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari**

(10-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 fevraldag'i O'RQ-522-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati o'z vakolatlari doirasida:

(10-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 fevraldag'i O'RQ-522-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda)

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalgalashishda ishtirok etadi;

Oldingi tahrirga qarang.

korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va dastlabki tergovni amalgalashishda ishtirok etadi;

(10-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 maydag'i O'RQ-542-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-son)

korruptsiyaning holati va korruptsiyaga qarshi kurashish natijalari to'g'risidagi axborotni yig'adi hamda tahlil qiladi, milliy xavfsizlik uchun tahdidlarni baholashni amalgalashishda ishtirok etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korruptsiya faktlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'radi;

korruptsiyaga oid huquqburzaliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalgga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalgga oshiradi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalgga oshirishi mumkin.

(10-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-soni)

#### **11-modda. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'z vakolatlari doirasida:

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalgga oshirishda ishtirok etadi;

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalgga oshiradi;

(11-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 maydagi O'RQ-542-soni Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-soni)

korruptsiyaning holati va korruptsiyaga qarshi kurashish natijalari to'g'risidagi axborotni yig'adi hamda tahlil qiladi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korruptsiya faktlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'radi;

aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongi, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

korruptsiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risidagi statistika ma'lumotlarining hisobi yuritilishini va tahlil qilinishini ta'minlaydi;

korruptsiyaga oid huquqbazarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

### *Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(11-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-soni)

## **12-modda. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o'z vakolatlari doirasida:

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

aholi o’rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ’ibotga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi;

ta’lim muassasalarida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim va tarbiyaga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihibaridagi korruptsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihibarning tahlilini amalga oshiradi;

korruptsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'radi;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

### *Oldingi tahrirga qarang.*

O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(12-moddaning ikkinchi qismi O’zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni *Qonuni* tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

### *Oldingi tahrirga qarang.*

**13-modda. O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari**

(13-moddaning nomi O’zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O'RQ-516-soni *Qonuni* tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)

### *Oldingi tahrirga qarang.*

O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti o’z vakolatlari doirasida:

*(13-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)*

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq jinoyatlar, iqtisodiy va korruptsiya bilan bog'liq boshqa jinoyatlar bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va surishtiruvni amalga oshiradi;

*(13-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)*

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning ehtimol tutilgan yo'llari va mexanizmlarini aniqlash uchun pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarning monitoringini tashkil etadi hamda o'tkazadi;

jinoiy ta'qib etishni tashkil qilish va huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini ko'rish uchun tegishli davlat organlarini korruptsiyaga oid aniqlangan huquqbazarliklar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qiladi;

korruptsiyaga oid huquqbazarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(13-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

**14-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korruptsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi**

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

Oldingi tahrirga qarang.

korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

(14-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

(14-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirdarda ham ishtirok etishi mumkin.

(14-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Milliy kengash va hududiy kengashlar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

(14-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O'RQ-729-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son)

## **15-modda. Ommaviy axborot vositalarining korruptsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi**

Ommaviy axborot vositalari:

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;

Oldingi tahrirga qarang.

korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning ijo etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

(15-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

### *Oldingi tahrirga qarang.*

Ommaviy axborot vositalari qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirdarda ham ishtirok etishi mumkin.

(15-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni *Qonuni* tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

### **3-bob. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish**

**16-modda. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish**

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar korruptsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'radi, shu jumladan korruptsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo'li bilan zarur chora-tadbirlar ko'radi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni.*

**17-modda. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish**

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'z mansabdor shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi.

**18-modda. Ta'lim muassasalarida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya**

Ta'lim muassasalarida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'naliшlarini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

#### **4-bob. Korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar**

#### **19-modda. Davlat boshqaruvi sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar**

Davlat boshqaruvi sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdar shaxslarining va boshqa xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korruptsiyaga oid huquqbarliklarga yo'l qo'ymaslik;

davlat organlarining mansabdar shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yagona printsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

davlat organlari xodimlari manfaatlarining to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazilishini ta'minlash;

davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o'tashning shaffof tartibini o'rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg'arazlik,adolatlilik va xolislik printsiplari asosida tanlov bo'yicha saralash hamda xizmatda ko'tarilish tizimini joriy etish;

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'riliши ustidan nazoratni ta'minlash;

*(19-modda birinchi qismining to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)*

davlat organlari faoliyatida korruptsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu organlar tomonidan ko'rileyotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazish;

normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish;

davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Qonunchilikda davlat boshqaruvi sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

*(19-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)*

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat organlarining va o'zga tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlari qonunchilikka rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat

majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korruptsiyaga oid biror-bir huquqbazarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbazarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shart.

*(19-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)*

## **20-modda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish;

davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslik;

davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtaсидаги о'заро munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish;

tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun teng shart-sharoitlar yaratish va insofsiz raqobatga yo'l qo'ymaslik;

davlat xaridlarining samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish, davlat xaridlarini joylashtirishda oshkorlik, shaffoflikni ta'minlash hamda raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash;

ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, kommunal xizmat ko'rsatish sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa sohalarida aholi uchun adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korruptsiyaga oid huquqbazarliklarga yo'l qo'ymaslik;

nodavlat tashkilotlarda korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

*Oldingi tahririga qarang.*

Qonunchilikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

(20-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

## **21-modda. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar**

Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat organlarining xodimlari o'zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.

Davlat organlarining maxsus bo'linmalari yoki odob komissiyalari manfaatlar to'qnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.

### Oldingi tahririga qarang.

Davlat organlarining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yo'l qo'yan xodimlari, shuningdek ularning rahbarlari qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

(21-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

## **22-modda. Ma'muriy tartib-taomillar sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar**

Ma'muriy tartib-taomillar sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

qonuniylik va adolatlilik printsiplarini ta'minlash, ma'muriy-boshqaruv jarayonining beg'arazligi kafolatlarini yaratish, ushbu jarayonning shaffofligini, tashqi va ichki nazorat uchun ochiqligini oshirish;

o'z ixtiyoricha harakat qilish vakolatlarini cheklagan holda ma'muriy tartib-taomillarni batafsil tartibga solish, byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik;

soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillarni joriy etish;

davlat organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilishning va yetkazilgan zarar o'rnini qoplashning samarali mexanizmlarini belgilash.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Qonunchilikda ma'muriy tartib-taomillar sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

(22-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

#### **23-modda. Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar**

Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash;

adolatli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalanilishini ta'minlash;

ichki nazoratning samarali tizimini, shuningdek davlat xaridlarini o'tkazish natijalari yuzasidan shikoyat qilish va nizolashishning samarali tartib-taomilini yaratish;

davlat elektron savdolarining samarali ishlashini ta'minlash.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Qonunchilikda davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

(23-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

#### **24-modda. Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasi**

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasi:

korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korruptsiyaga sabab bo'ladigan omillarni aniqlashga;

korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan loyihani qabul qilish oqibatlarini umumiylashga;

normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash jarayonida korruptsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilishga;

korruptsiyaga sabab bo'lgan, aniqlangan omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga va choralar ko'rishga yo'naltirilgan jarayondan iborat bo'ladi.

### *Oldingi tahrirga qarang.*

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasi qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan faoliyatning tegishli yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladi.

(24-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-soni)



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021 yil 24 fevraldaggi 2-mh-sonli «Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyrug'i (ro'yxat raqami 3287, 24.02.2021 y.).*

### **5-bob. Korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligi**

**25-modda. Korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yishga, korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi printsipini ta'minlashga doir chora-tadbirlar**

Korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yishga, korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun

javobgarlikning muqarrarligi printsipini ta'minlashga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining korruptsiyaning holatini va tendentsiyalarini tizimli tahlil qilishga asoslangan samarali ishini tashkil etish, ularning faoliyatida korruptsiyaga oid huquqbazarliklarga yo'l qo'ymaslik;

korruptsiyaga oid huquqbazarliklarga qarshi kurashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik ta'minoti darajasini oshirish, ularning ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

sudlarning mustaqilligi va erkinligini, ular faoliyatining ochiqligini ta'minlash;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari o'rtasida muvofiqlashtirishni va hamkorlikni ta'minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning korruptsiyaga oid huquqbazarliklar faktlariga doir murojaatlari to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash;

korruptsiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risida axborot bergen shaxslarning himoya qilinishini ta'minlash;

korruptsiyaga qarshi kurashning samarali jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual mexanizmlarini yaratish.

## **26-modda. Davlat organlari xodimlarining korruptsiyaga oid huquqbazarliklar faktlari to'g'risida xabar qilish majburiyati**

Davlat organlarining xodimlari ularni korruptsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to'g'risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbazarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatning davlat organlarining xodimlari tomonidan bajarilmaganligi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

(26-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

## **27-modda. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik**

Oldingi tahrirga qarang.

Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

(27-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko'ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin.

Yuridik shaxslar korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210 – 214-moddalari.*

Oldingi tahrirga qarang.

## **28-modda. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarni va ularning yaqin qarindoshlarini himoya qilish**

Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari davlat himoyasida bo'ladi.

Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etadi hamda faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va shaxsning o'zining, shuningdek

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organ rahbarining yozma ruxsati asosida oshkor etiladi.

Korruptsiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslarning hamda ularning yaqin qarindoshlarining hayotiga va sog'lig'iga haqiqiy tahdidni, ularga nisbatan zo'rlik ishlatalganligini, ularning mol-mulki yo'q qilinganligini yoki shikastlantirilganligini tasdiqlovchi yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, korruptsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlar «Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ularni himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rishi shart.

Korruptsiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarning va ularning yaqin qarindoshlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga korruptsiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risida xabar qilganligi sababli tajovuz qilishga, shuningdek ish beruvchi tomonidan ularning mehnatga oid huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilmaydi hamda bu qonunga ko'ra javobgarlikka sabab bo'ladi.

Korruptsiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslarni rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning qoidalari korruptsiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborotni xabar qilgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular bunday huquqbazarlik uchun qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

(*28-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi O'RQ-729-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son*)

## **29-modda. Korruptsiyaga oid huquqbazarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o'zgartirish**

Korruptsiyaga oid huquqbazarliklar natijasida qabul qilingan qarorlar manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra vakolatli davlat organi, boshqa tashkilot yoki mansabdor shaxs tomonidan bekor qilinishi yoxud o'zgartirilishi yoki sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

## *Oldingi tahrirga qarang.*

Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi natijasida qabul qilingan qaror bekor qilingan, o'zgartirilgan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, uning qabul qilinishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o'rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi lozim.

(29-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

### **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

#### **30-modda. Korruptsiya sohasidagi tadqiqotlar**

Korruptsiyaning holatini, xususiyatini, miqyoslarini, o'zgarishlarini va tendentsiyalarini, shuningdek korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilish samaradorligini o'rganish davlat organlari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek fuqarolar bilan hamkorlikda sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdag'i tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan doimiy asosda amalga oshiriladi.

Sotsiologik tadqiqotlar korruptsiyaga eng ko'p duchor bo'lgan tarmoqlar va sohalarni, uning yuzaga kelishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek mazkur faoliyatga jalb etilgan ijtimoiy guruhlarni aniqlash maqsadida sotsiologik so'rovlari o'tkazish va boshqa usullardan foydalanish yo'li bilan jamoatchilik fikrini tizimli o'rganishni o'z ichiga oladi.

Maxsus tadqiqotlar huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyati natijalarini, korruptsiyaga oid jinoyatchilikning holatini, korruptsiya ko'rsatkichlarining statistika hisobini muntazam ravishda tizimli tahlil qilishni, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning xususiyati va miqyoslarini, o'zgarishlari va tendentsiyalarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiqotlar korruptsiyaga qarshi kurashish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni, ilmiy uslubiyotlar va tavsiyalar

ishlab chiqishni, ularni amaliyotga oqilona joriy etishni, korruptsiyaga qarshi kurashishda qo'llanilayotgan shakllar va usullar samaradorligini proqnoz qilish hamda ilmiy tahlil etishni o'z ichiga oladi.

Davlat korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi.

### **31-modda. Axborot olish**

Har kim davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi to'g'risida, shu shaxsning o'ziga yoki shaxslar guruhiga taalluqli bo'lgan hujjatlarning qabul qilinish jarayonlari haqida axborot olish huquqiga ega.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar korruptsiya bilan bog'liq bo'lgan, jamiyat uchun ahamiyatga molik voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi xabarlarni qonunchilikda belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi.

*(31-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)*

Axborot olish faqat qonunga muvofiq cheklanishi mumkin.

### **32-modda. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik**

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

*(32-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)*

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari chet davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuborish va ularning so'rovlariga javob berish huquqiga ega.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida olingan mol-mulkni O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq qaytarish choralarini ko'radi.

(32-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi Konvensiyasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **33-modda. Ushbu Qonunga muvofiqlashtirish**

(33-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

### **34-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi**

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.



*LexUZ sharhi*

*Ushbu Qonun «Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 4 yanvardagi 2 (6696)-sonida e'lon qilingan.*

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. MIRZIYoEV**

Toshkent sh.,

2017 yil 3 yanvarъ,

O'RQ-419-son

### **3.3. O'zbekistonda korruptsiya qarshi kurashishga oid davlat siyosatining asosiy yo'naliшlarining qiyosiy tahlili.**

Korruptsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylanib ulgurdi. Buni so'nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan kontseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korruptsiyani oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rish mumkin. Jumladan, korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda O'zbekiston islohotlarining asosiy hujjati hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ahamiyati katta hisoblanadi.

Mamlakat taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlari belgilangan Harakatlar strategiyasining Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishida bevosita korruptsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korruptsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.

*Eng avvalo*, shuni ta'kidlash o'tish joizki, korruptsiyaga qarshi kurashning sifat va son jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko'tarilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning siyosiy irodasi mahsulidir. Jumladan, davlat rahbarining jamiyatni «halollik vaktsinasi bilan emlash» zaruriyati haqidagi fikrlari bu boradagi ishlarga qo'yilgan tamal toshi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Prezident 2020 yilning 24 yanvarъ kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, «Jamiyatimizda korruptsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi».

*Ikkinchidan*, sohada normativ-huquqiy bazani tizimli ravishda takomillashtirib borish choralari ko'rilmoxda. Fikrimizning isboti o'laroq, korruptsiyaga qarshi kurash borasidagi qonunning kuchga kirgani, shuningdek turli qonunosti hujjatlarining qabul qilinganini keltirish

mumkin. Xususan, 2017 yil 3 yanvarъ kuni O’zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoev «Korruptsiyaga qarshi kurashish to’g’risida»gi qonunni imzoladi. Ushbu Qonunning maqsadi korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo’lib, unda «korruptsiya», «korruptsiyaga oid huquqbuzarlik», «manfaatlar to’qnashuvi» kabi asosiy tushunchalarga izoh berish bilan bir qatorda, korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy printsiplari ham qayd etilgan. SHuningdek, qonun bilan korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning mazkur sohadagi ishtiroki, korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, jazo muqarrarligini ta’minlash va bu borada xalqaro hamkorlikni ta’minlash kabi choralar mustahkamlab qo’yildi.

*Uchinchidan*, chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi uchun maxsus davlat organi tashkil etilib, bu boradagi davdat siyosatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston Respublikasida Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korruptsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korruptsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi. Agentlik faoliyatining huquqiy asoslari, vazifa va funktsiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilashda xalqaro normalarni ilgari surgan holda xorijiy tajriba atroflicha o’rganildi. Uning eng maqbul jihatlari Prezidentning mazkur farmonida to’laqonli aks ettirildi. SHuningdek, O’zbekiston Respublikasi korruptsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi. Ushbu islohotlardan ko’zlangan asosiy maqsad, bu – korruptsiya illatlariga barham berishdan iborat.

*To'rtinchidan*, barcha davlat va jamoat tashkilotlarini, mamlakat miqyosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni o'z ichiga qamrab oluvchi davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldag'i Qarori bilan 2017–2018 yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha birinchi Davlat dasturi qabul qilinib, uning ijrosi doirasida aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu islohotlarni davom ettirgan holda, 2019 yilning 27 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan 2019–2020 yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha navbatdagi Davlat dasturi tasdiqlandi. Bu boradagi so'nggi qadamlardan biri sifatida 2021 yili 6 iyul's kuni «Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korruptsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021–2022 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturini keltirish mumkin. Unda 44 ta chora-tadbir ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ijro muddatlari, mas'ul ijrochilar, ijro mexanizmi aniq belgilab qo'yilgan.

*Beshinchidan*, mamlakatda korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarning asosida davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Jumladan, 2021 yil 16 iyunda qabul qilingan «Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra, barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari tomonidan Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatini tasdiqlashlari lozimligini joriy etildi. Bundan tashqari, byudjet xarajatlarini tartibga solish

bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, byudjet qonunchiligining buzilishi faktlari to'g'risida xabardor qilish va byudjet jarayonini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish tartib-taomilini tashkil etish bo'yicha «Openbudget» – «Ochiq byudjet» portali ishga tushirildi.

*Oltinchidan*, korruptsiyaga qarshi kurashning yana bir muhim jihat – davlat organlarini optimizatsiya qilish, ularning ixchamligini oshirish tizimli ravishda, bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, 2021 yil 3 apreль kuni Prezident davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining shtat birliklari sonini qisqartirish to'g'risidagi qarorni imzoladi. Qarorga muvofiq, davlat organlari xodimlarining soni 15 foizgacha maqbullashtirildi. Natijada, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ularning idoraviy va hududiy bo'linmalarida jami 5288 ta shtat qisqartirildi. SHuningdek, vazirlik va idoralarning 40 nafar rahbar o'rindbosarlari lavozimlari ham qisqartirildi.

*Ettinchidan*, korruptsiya holatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning eng muhim jihatlaridan biri – davlat boshqaruvi tizimida «inson omili»ni kamaytirish uchun davlat va jamiyat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish yo'lga qo'yildi. Ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, litsenziyalash va ruxsat berishga doir tartib-taomillarni soddallashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish maqsadida barcha hududlarda jami 201 ta davlat xizmatlari markazlari tashkil etildi. Ushbu markazlar tomonidan 2017 yilda 37 turdag'i davlat xizmatlari ko'rsatilgan bo'lsa, 2018 yilda ularning soni 106 taga, 2019 yilda ularning soni 133 taga yetdi. 2020 yildan esa markazlar orqali 148 turdag'i shaffof, qulay va tezkor davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda.

*Sakkizinchidan*, korruptsiyaga qarshi kurash xalqaro tajriba va huquqning tegishli normalarini mamlakat qonunchiligi va amaliyotiga implementatsiya qilish bilan birgalikda olib borilmoqda. Jumladan, Korruptsiyaga qarshi kurash Agentligining tashkil etilish ham O'zbekiston ratifikatsiya qilgan BMTning Korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasining tegishli moddalari, shuningdek xalqaro korruptsiyaga

qarshi kurash amaliyotidagi «Jakarta printsiplari»ning mamlakatdagi implementatsiyasiga misol bo’la oladi.

*To’qqizinchidan*, korruptsiyaga qarshi murosasiz muhitni yaratish jamoatchilikning keng ishtirokida amalga oshirilmoqda. Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko’rib chiqish tizimi tubdan takomillashtirilib, Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonalar, «Ishonch telefon» hamda har bir vazirlik va davlat idoralarining «ishonch telefonlari», «virtual qabulxonalar» tashkil qilinib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minalash maqsadida barcha darajadagi davlat rahbarlarining «sayyor qabullar»ni o’tkazish amaliyoti yo’lga qo’yildi.

*O’ninchidan*, korruptsiyaga qarshi kurashda davlat organlari va xo’jalik yuritish sub’ektlarida «komplaens-nazorat» tizimining keng joriy etishili amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019–2020 yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat dasturida ustav jamg’armasida davlat ulushi bo’lgan tashkilotlarda korruptsiyaga qarshi kurashish «komplaens-nazorat» tizimini joriy etish, samaradorligini monitoring qilish hamda korruptsiyaga qarshi kurashish tegishli korruptsion standart (ISO 37001)ga muvofiq sertifikatlashtirish tartibini o’rnatish bo’yicha tegishli vazifalar ilgari surildi. Ushbu belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi 26 ta vazirlik va idoralarda yashirin iktisodiyot ulushini qisqartirish hamda korruptsiyaga qarshi ichki nazorat «komplaens-nazorat» tizimini joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Albatta, amalga oshirilayotgan ishlar ko’lami maqtovga loyiq, biroq, hali o’z yechimini kutayotgan masalalar ham yo’q emas. Korruptsiyaga qarshi kurash Agentligining ma’lumotlariga ko’ra, 2021 yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korruptsiya holatlari bilan bog’liq bo’lgan 1676 ta jinoyat ishlari tergov qilinib, sudlarga yuborilgan. Sud yakunlari bo’yicha korruptsiyaga oid jinoyat ishlari bo’yicha 592,5 mlrd. so’m moddiy zarar yetkazilgani aniqlanib, shundan 170,8 mlrd. so’mi (28 foizi) undirilib, 421,7 mlrd. so’mi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan undirilishi belgilangan.

O’z navbatida, 2021 yil yanvar’ oyida e’lon qilingan «Transparency International» xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan 2020 yil bo’yicha

«Korruptsiyani qabul qilish indeksi» reytingida O’zbekiston 180 ta davlat orasida 26 ball bilan 146-o’rinni egallab, 7 pog’onaga ko’tarildi. 2019 yilda O’zbekistan 25 ball bilan 153-o’rinni egallagan bo’lsa, 2018 yilda bu ko’rsatkich 23 ball bilan 158-o’rinni tashkil etdi. O’zbekiston ikki yil ichida 12 pog’onaga yuqorilab, Markaziy Osiyo mintaqasida korruptsiyaga qarshi kurashishda sezilarli ijobiy ko’rsatkichni namoyish etdi. Bu esa, o’z navbatida, mamlakatda korruptsiyaga qarshi kurash sohasida olib borilayotgan islohotlar samarali natijalar berayotganiga dalolatdir.

### **3.4. “Korruptsiyasiz soxa” loyixasining joriy etilishi va amalga oshirish jarayonlari.**

E’tirof etish kerakki, mamlakatimizda sunggi yillarda ochiklik va oshkoraliqni ta’minalashga karatilgan muxdm va keskin ijobiy uzgarishlar amalga oshirildi. Fukarolarning davlat idoralari mansabdar shaxslari bilan tugidan-tugri mulokot kilish imkonи paydo buldi, ularning faoliyati jamoatchilik uchun maksimal darajada ochiklanmokda.

Birok, ayrim vazirlik va idoralar, shuningdek, maxalliy xokimliklar tomonidan faoliyatining ochikligini ta’minalash, xususan, maxalliy byudjetning rejadan orttirib bajarilgan kismi va mazkur mablaglar yunaltirilgan maksadlar tugrisidagi ma’lumotlarning tulik ochiklanmayotgani, xalk deputatlari maxalliy Kengashlari sessiyalarini telekanallar, shuningdek, internet tarmogida jonli efirga uzatilmayotganligi, vazirlik va idoralar tomonidan xizmat safarlari va shunga uxhash xarajatlari, uz tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshka kuchmas mulklar tugrisidagi ma’lumotlarni jamoatchilikka oshkor kilmaslik xolatlari saklanib kolmokda. Bu esa turli darajadagi korruption xavf va omillarning kelib chikishiga sabab bulmokda.

Eng muximi - 2014 yilda kabul kilingan "Davlat xokimiyati va boshkaruv organlari faoliyatining ochikligi tugrisida"gi Qonunning 22-moddasida Davlat xokimiyati va boshkaruvi organlari faoliyatining ochikligi tugrisidagi konun xujjalarni buzganlik uchun aybdor shaxslar

belgilangan tartibda javobgar bulishi nazarda tutilgan bulsada, shu paytga kadar uni buzganlik uchun javobgarlik belgilanmagan edi.

Ushbu masalalarni xal etish maksadida 2021 yil 16 iyunda Uzbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochikligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir kushimcha chora-tadbirlar tugrisida"gi PF-6247-sonli Farmoni kabul kilindi. Farmonga asosan barcha davlat xokimiyyati va boshkaruvi organlari, shu jumladan, Xisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari xamda ularning tarkibiy va xududiy bulinmalari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortik bulgan xujalik jamiyatlari xamda davlat unitar korxonalari tomonidan Ochik ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bulgan ijtimoiy axamiyatga molik 33 turdag'i ma'lumotlar ruyxati tasdiklandi.

Farmonga muvofik davlat organlari va tashkilotlari xar yili 1 martga kadar uz faoliyatiga oid xisobotni rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, 10 martga kadar uni keng jamoatchilik ishtirokida muxokama kilish joyi va vakti xakida xabar beradi, 1 aprelga kadar uz faoliyatiga oid xisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muxokama kilish uchun matbuot anjumanlarini utkazadi, 2021 yil 1 iyuldan boshlab amalga oshirilgan davlat xaridlari, shu jumladan, tugridan-tugri shartnomalar buyicha xarid kilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar), mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mexmonlarni kutib olish xarajatlari tugrisidagi ma'lumotlar. Bundan tashkari Farmonda Uzbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Maxkamasi xujjalari bilan solik va bojxona imtiyozlari xamda preferentsiyalar, shu jumladan, individual imtiyozlar berilgan sub'ektlarning benefitsiarlari, ular tomonidan tulangan soliklar va moliyaviy kursatkichlar xamda uzlarining yillik xarajatlar smetasi va uning ijrosi, shu jumladan, ob'ektlarni kurish, rekonstruktsiya kilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish xarajatlari tugrisidagi ma'lumotlar Uzbekiston Respublikasining Ochik ma'lumotlar portaliga va uz rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, ularni xar chorakda yangilab borilishi belgilangan.

SHuningdek, mazkur Farmon bilan oliy va urta maxsus ta’lim vazirligi, Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Ta’lim sifatini nazorat kilish davlat inspeksiysi va Davlat test markazining kuyidagi imtixonlarni utkazish jarayonini Internet tarmogida jonli efirga uzatish tartibini joriy etish tugrisidagi takliflari belgilab kuyildi:

- oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yunalishlariga kirish uchun test va ijodiy (kasbiy) imtixonlar;
- oliy ta’lim muassasalarining magistratura (klinik ordinatura) boskichiga kabul imtixonlari;
- respublikadagi yoki xorijdagi oliy ta’lim muassasasidan respublikadagi davlat oliy ta’lim muassasasiga ukishni kuchirish istagini bildirgan talabalardan olinadigan imtixonlar;
- xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik tugrisidagi xujjatlarni tan olishda talabgorlardan olinadigan test sinovlari.
- Oliy va urta maxsus ta’lim vazirligi Davlat test markazi, Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Ta’lim sifatini nazorat kilish davlat inspeksiysi xamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda:
- tizimida oliy ta’lim muassasalari bulgan vazirliklar va idoralarni jalb kilgan xolda ukuv yili kabuliga kadar «transfer.edu.uz» platformasi negizida mazkur bandda kursatilgan imtixon jarayonlarini Internet tarmogida jonli efirga uzatishni ta’minlaydigan, barcha foydalanuvchilar uchun ochik bulgan veb-platformasini ishga tushirish;
- bir oy muddatda imtixonlarni (test sinovlarini) utkazish jarayonini Internet tarmogida jonli efirga uzatish buyicha texnik talablarni (urnatiladigan videokameralar va tasvir sifati, joylashish sxemasi va boshkalar) ishlab chikish belgilab kuyildi.

Korruptsiyaga karshi Agentlikning davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochikligini ta’minlash borasidagi vazifalarini belgilash maksadida Agentlik zimmasiga bir kator kushimcha vazifalar yuklatildi.

Agentlik tuzilmasida boshkaruv xodimlarining umumiyligi cheklangan soni va mexnatga xak tulash fondi doirasida Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochikligini ta'minlash boshkarmasi tashkil etildi.

Davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari xamda murojaatlar bilan ishslash bulinmalariga mazkur organlarda ochiklikka oid konunchilik xujjatlarining ijro etilishini uz vaktida va sifatli ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiklik darajasini yanada oshirish buyicha "Yul xaritasi" tasdiklandi.

Korruptsiyaga karshi Agentlik tomonidan vazirlik va idoralarning ochiklikka oid konunchilik xujjatlarida belgilangan majburiyatlarning bajarilishi urganilib, muntazam monitoring kilib borilmokda.

Ijtimoiy axamiyatga molik ma'lumotlarning belgilangan tartibda ochiklanishini ta'minlamagan 11 ta viloyat, Toshkent shaxar xokimliklari, shuningdek Qorakalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi konunbuzilish xolatlarini bartaraf kilish xakida rasman ogoxlantirildi.

2021 yilning oktyabrbelta oyida vazirlik va idoralar kesimida utkazilgan monitoring natijalari buyicha 230 ta davlat idoralarning 121 tasi xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mexmonlarni kutib olish xarajatlari xakidagi ma'lumotlarni uz rasmiy joylashtirmaganligi aniklandi.

SHu kabi, Respublikadagi 119 ta davlat organi va tashkiloti uz tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshka kuchmas mulklar tugrisidagi ma'lumotlarni Ochik ma'lumotlar portaliga uz vaktida joylashtirilishini ta'minlamagan bulsa, 48 tasi Portalda shaxsiy kabinet xam ochmaganligi ma'lum buldi.

Bu kabi kamchiliklarga yul kuyib kelayotgan vazirlik va idoralar mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirish maksadida, Agentlik tomonidan davlat xokimiyyati va boshkarubi organlari faoliyatining ochikligi tugrisidagi konunchilikni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi konun loyixasi ishlab chikildi xamda Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ^onunchilik palatasiga kiritildi.

2022 yil 18 yanvarda Oliy Majlis ^onunchilik palatasining navbatdagi yalpi majlisida Korruptsiyaga karshi kurashish agentligi tomonidan ishlab

chikilgan davlat xokimiyati va boshkaruvi organlari tomonidan ochiklik tugrisidagi konunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi konun loyixasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ikkinchi ukishda kabul kilindi.

Yangi kabul kilinayotgan konun bilan endilikda davlat xokimiyati va boshkaruvi organlari faoliyatining ochikligi tugrisidagi konunchilikni buzgan, jumladan Ochik ma'lumot sifatida joylashtirilishi kerak bulgan ma'lumotlarni e'lon kilmagan yoki tulik e'lon kilmagan, e'lon kilish muddati va tartibini buzgan yoki ma'lumotlarni notugri kursatgan idoralar mansabdon shaxslari ma'muriy javobgarlikka tortilishi belgilanmokda.

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6247-sonli Farmoniga muvofik, 2021 yilning 1 dekabridan boshlab, Korruptsiyaga karshi kurashish agentligi tomonidan xozirda viloyat, tuman, shaxar Kengashi sessiyalarining jamoatchilik uchun ochik bulishi monitoring kilinmokda.

Bundan tushunishimiz mumkinki, jinoyat ob'ekti jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat bo'lib, jinoyat sodir etilishi natijasida unga zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazilishi xavfi yuzaga keladi. Korruptsiyaviy jinoyatlarning ob'ekti haqida fikrlarni bir qator xorijiy huquqshunos-olimlarning asarlarida ko'rishimiz mumkin. jumladan, A.N. Agibaev bunday turdag'i jinoyatlarning ob'ekti "davlat apparatining to'g'ri faoliyat yuritishi" ekanligini ta'kidlaydi.

V.E.Mel'nikovaning fikricha esa, "davlat va jamoat apparati tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar" korruptsiyaviy jinoyatlarning ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Boshqa bir guruh olimlar korruptsiyaviy jinoyatlar ob'ekti sifatida "davlat xizmatining obro'sini, unga nisbatan xalqning Hozirgi kunda korruptsiyaga va u bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish respublikamizda dolzARB masalalardan biri hisoblanadi.

"Korruptsiya" so'zi lotincha "cor ruptum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "singan, buzilgan, sotib olingan, pora evaziga og'dirish" degan ma'nolarni bildiradi. Korruptsiya jinoyatchiligi iqtisodiyotga, mamlakat siyosiy va xalqaro nufuziga hamda jamiyat ma'naviy-ahloqiy nufuziga fojeali zarar yetkazadigan hafli illat hisoblanadi.

BMT tahlillariga qaraganda, korruptsiya tufayli dunyo iqtisodiyoti har yili 2,6 trln. dollar zarar ko'radi. Bu miqdor jahon yalpi mahsulotining taxminan 5 foizini tashkil etadi.

SHuningdek, jahon banki ma'lumotlariga qaraganda, korruptsiya darjasasi Kanadada – 19, Germaniyada – 21, Buyuk Britaniyada – 22,

Yaponiyada – 24, AQSHda – 26, Italiyada esa 57 foizni tashkil etadi. Taqdim etilgan statistik ma'lumotlardan ma'lumki, rivojlangan davlatlarda ko'rsatgich foizi kam hisoblanadi. Bu boradagi ko'rsatkichning eng quyi darjasи 8 foizni (Daniya, SHvetsiya, Finlyandiya), eng yuqori darjasи esa 92 foizni (Somali, Janubiy Sudan) tashkil etmoqda. Ko'riniб turibdiki, Skandinaviya davlatlaridan SHvetsiya, Finlandiya va Daniyada atiga 8 foizni tashkil etib, Somali hamda Janubiy Sudanda 92 foiz, eng yuqori ko'rsatgichni tashkil qiladi.

Barchaga ma'lumki, korruptsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi konventsiyasiga 2008 yil 7 iyuldagи O'RQ-158-son Qonuni bilan a'zosiga aylandi. SHuningdek, 2017 yilning 3 yanvarida "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonun qabul qilindi. Bir qancha rivojlanlan xorijiy davlatlarda shunga o'xshash maxsus qonunlar davlat tomonidan qabul qilingan. Masalan, AQSHda shunga o'xshash maxsus qonun "Foreign Corrupt Practices Act" deb nomlangan bo'lib, u Amerika kompaniyalarini shartnomalar tuzishda imtiyozlar va kafolatlar olishda xorijiy mansabdor shaxslarga pora bergenlik uchun javobgarligini belgilaydi.

Korruptsiya deganda davlat hokimiyatida davlat xizmati imkoniyatlaridan o'zboshimchalik bilan vakolatlarni suiste'mol qilgan holda hamda mansab vakolatiga ega bo'lgan shaxslarning o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab va moddiy naf ko'rish maqsadida g'ayriqonuniy hamda g'araz niyatda fuqarolardan pora olishi, pora evaziga sotilishi hamda jinoiy uyushmalarga madadkor bo'lgan holda yordam berishida namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisa tushuniladi.

2017 yilning 3 yanvarda qabul qiligan "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonunning 2-moddasiga ko'ra **korruptsiyaga oid huquqbazarlik** deganda korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish tushuniladi.

Qonun hujjatlaridan ma'lumki, huquqbuzarliklarning asosan to'rtta turi mavjud bo'lib, ular fuqaroviy, intizomiy, ma'muriy va jinoiy huquqbuzarliklardan iborat.

Korruptsiyaga oid jinoyatlar tushunchasi va ularning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilmagan. 2017 yilning 3 yanvarda qabul qiligan "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonunida nazarda tutilgan **korruptsiyaga oid huquqbuzarlik tushunchasidan Jinoyat qonunidagi qaysi jinoyatlar korruptsiyaviy jinoyatlar ekanligini bilib olish mumkin**.

**Jumladan**, korruptsiyaviy jinoyatlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 167-moddasi 2-qismi "g" bandi, 168-modda 2-qismi "v" bandi, 1929 , 19210 , 210-214-moddalari, 182-moddasi 2-qismi "g" bandi, 19211, 205-206, 209-moddalari hamda jinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq holda sodir etilgan Jinoyat kodeksining 243-moddasini nazarda tutish lozim.

2017 yilning 3 yanvarda qabul qiligan "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonunda **korruptsiya deganda** – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish tushunilishi nazarda tutilgan. Ushbu ta'rif xalqaro normativ huquqiy hujjatlar va Korruptsiyaga qarshi kurashish Konventsiyasini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Ammo, amaldagi Jinoyat kodeksimizda mavjud bo'lgan korruptsiyaviy jinoyatlarga oid moddalarning dispozitsiyalari ushbu ta'rif talablariga to'liq javob bermaydi.

Umuman olganda korruptsiyaga umume'tirof qilingan ta'rif berilmagan. Biroq, korruptsiya o'zida poraxo'rlik, odil sudlovga to'sqinlik qilish, mansabni suiiste'mol qilish, noqonuniy ustunliklarni olish va odil

sudlovga to'sqinlik qilish maqsadida, o'z mansabidan foydalanish kabi, muayyan xatti-harakatlar tizimidan iborat bo'ladi.

Korruptsiyaviy jinoyatlarga oid Jinoyat kodeksi moddalari sanktsiyalarda javobgarlik masalalari turlicha aks etgan. Jumladan, Jinoyat kodeksi 167-moddasi 2-qismi "g" bandi, 168-modda 2-qismi "v" bandi, 192.9 , 192.10 , 210-214-moddalari, 182-moddasi 2-qismi "g" bandi, 192.11, 205-206, 209-moddalari hamda jinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq holda sodir etilgan Jinoyat kodeksining 243-moddasi sanktsiyasida nazarda tutilgan javobgarlik masalalarida jazo turlari har xil nazarda tutilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- JK 167-moddasi 2-qismi "g" bandi bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi;
- JK 168-modda 2-qismi "v" bandi bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi;
- JK 192.9-moddasi bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi;
- JK 192.10-moddasi bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

- JK 210-moddasi bo'yicha eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima bo'lsa, eng og'iri o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi;
- JK 211-moddasi bo'yicha eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdord a jarima bo'lsa, eng og'iri o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi;
- JK 212-moddasi bo'yicha eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima bo'lsa, eng og'iri o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi;
- JK 213-moddasi bo'yicha eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima bo'lsa, eng og'iri besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi;
- JK 214-moddasi bo'yicha eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima bo'lsa, eng og'iri besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi;
- JK 182-moddasi 2-qismi "g" bandi bo'yicha eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi;
- JK 19211-moddasi bo'yicha eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima bo'lsa, eng og'iri uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi;

- JK 205-moddasi bo'yicha eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima bo'lsa, eng og'iri besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi;
- JK 206-moddasi bo'yicha eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima bo'lsa, eng og'iri besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi;
- JK 209-moddasi bo'yicha eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima bo'lsa, eng og'iri besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi;
- JK 243-moddasi bo'yicha besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yuqorida nazarda tutilgan korruptsiyaviy jinoyatlarga oid Jinoyat kodeksi moddalari tahlili shuni ko'rasatmoqdaki, eng yengil jazo turi bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima bo'lsa, eng og'iri o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi.

SHuningdek, BMTning korruptsiyaga qarshi Konventsiyasida, shu bilan birga ko'plab rivojlangan xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida noqonuniy boylik ortirish va mavqeni suiiste'mol qilish korruptsiyaviy jinoyatlar sifatida o'z aksini topgan. Biroq bunday jinoyatlar bizning qonunchiligidimizda mavjud emas. SHu kabi korruptsiyaviy jinoyatlarni Jinoyat kodeksimizda aks ettirish korruptsiya qarshi kurashishda samarali ijobiy xususiyat kasb etadi.

Noqonuniy boyli ortirish bilan bog'liq korruptsiyaviy jinoyatlar odatda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladi. Mazkur jinoyatning zaruriy belgilardan biri boylik ortirishning qonuniy manbasi noma'lum bo'lib, asosan jinoiy yo'llar bilan boylik ortirish holatlari ko'zga tashlanadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, Jinoyat kodeksimizga BMTning korruptsiyaga qarshi Konventsiyasida, shu bilan birga ko’plab rivojlangan xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligidagi nazarda tutilgan korruptsiyaviy jinoyatlarga oid normalarni implementatsiya qilish lozimdir.

## **5.2. Xalqaro-huquqiy hujjatlarda korruptsiyaga oid qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik bo'yicha standartlar: BMT va IXTT misolida.**

Inson umri davomida jamiyatda ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug’ullanar ekan, bu jarayonda uning shaxsiy manfaatlari bilan xalq manfaatlari to’qnash kelishi tabiiy holdir. Bunday vaziyatda millat kelajagini, davlat va jamiyat manfaatini o’zining nafsidan, mol-dunyoga bo’lgan xirslaridan ustun qo’ymay turib, yurt kelajagi uchun xissa qo’shib bo’lmaydi. Buning uchun insonda yuksak ma’naviyat shakllangan bo’lishi kerak. Ammo, insonning yurt kelajagiga xissa qo’shishdek oliy maqsadga erishish yo’lidagi intilishlariga to’siq bo’luvchi bir illat bor-ki, u “Korruptsiya” deb ataladi. Korruptsiya sodda qilib aytganda, insonni o’z nafsi yo’lida xizmat yoki mansab mavqeidan foydalanib, moddiy naf yoki nomoddiy manfaat ko’rishdir. Dunyoning rivojlangan davlatlari qatori biz ham bu illatga qarshi kurashmasdan turib, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirish yo’lidagi islohotlarni amalga oshirishimiz mumkin emasligini hayotning o’zi isbotlab turibdi. 2017 yil 3 yanvar’ kuni O’zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi qonuni qabul qilingan bo’lib, ushbu qonunning asosiy maqsadi korrustiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Korruptsiya o’zi nima? Bu haqda har bir insonning o’ziga xos tasavvuri va tushunchasi bor. Qonunchilikda esa unga shunday ta’rif berilgan: “Korruptsiya – shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalinishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”. Jinoyat kodeksidagi korruptsiya bilan bog’liq jinoyatlar toifasiga 167-modda

(o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish), 168-modda (firibgarlik), 192<sup>9</sup>-modda (tijoratda pora evaziga og'dirib olish), 192<sup>10</sup>-modda (nodavlat tijorat tashkilotning yoki boshqa nodavlat tashkilotning xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish)ni iqtisodiyot soxasidagi korruptsiyaga oid jinoyatlar; 205-modda (hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste'mol qilish), 206-modda (hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish), 208-modda (hokimiyat harakatsizligi), 209-modda (mansab soxtakorligi), 210-modda (pora olish), 211-modda (pora berish), 212-modda (pora olish-berishda vositachilik qilish)ni boshqaruv tartibida qarshi korruptsiyaga oid jinoyatlar; 236-modda (tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish), 238-modda (yolg'on guvohlik berish), 241-modda (jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish)ni odil sudlovga qarshi korruptsiyaga oid jinoyatlar; 243-modda (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish)ni jamoat tartibiga qarshi korruptsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiritish mumkin.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun turli xil javobgarlik doirasi va jinoiy jazolar belgilangan. Xususan, pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish tegishli holatlar mavjud bo'lganida, o'ta og'ir jinoyatlar sifatida 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin. Pora olish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqe'idan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsnинг manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekaligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda 2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi (JK 210-modda 1-qism). Pora olish takroran, xavfli retsidivist tomonidan, ko'p miqdorda, tamagirlik yo'li bilan yoki bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (JK 210-modda 2-

qism). Agar pora olish juda ko’p miqdorda yoki uyushgan gurux manfaatlarini ko’zlab sodir etilgan bo’lsa, 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi (JK 210-modda 3-qism). Sud sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarini e’tiborga olib, alohida hollarda jinoyat kodeksi maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdag'i jazoni tayinlashi mumkin. (JK 57-modda). Jazo tayinlash masalasini tartibga soluvchi qonun normalari to’g’ri qo’llanilishini ta’minalash maqsadida, Oliy sud Plenumi tomonidan 2006 yil 3 fevral kuni “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to’g’risida”gi 1-sonli qarori qabul qilingan bo’lib, unda sudlarning e’tiborini jinoyat uchun jazo tayinlashda qonuniylik, insonparvarlik, odilik va javobgarlikning muqarrarligi printsiplariga qat’iy amal qilishga qaratish tushuntirilgan.

Xulosa o’rnida aytish kerakki, odil sudlov har qanday jinoiy qilmishga huquqiy baxo beradi. Bugungi yangilanayotgan O’zbekistonning maqsadi esa, korruptsiyaga batamom barxam berishga qaratilgan. Zero, korruptsiyaviy qilmishlarning har qanday turi jamiyat va insoniyat uchun o’ta xavflidir.

### **5.3. Ayrim horijiy mamlakatlar qonunchiligidagi korruptsiyaga oid qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik masalalari.**

Kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minalashga qaratilgan o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonun loyihasi birinchi o’qishda qabul qilindi.

Mazkur qonun loyihasi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6iyuldag'i “Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo’lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korruptsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora – tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni hamda bilan tasdiqlangan Korruptsiyaga

qarshi kurashish bo'yicha 2021 — 2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturining ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ta'kidlash joiz, yurtimizda "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan. Unda "korruptsiya", "korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar" tushunchalari berilgan, "korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar", "korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik", "korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish" kabi tushunchalar ishlatilgan, lekin amaldagi Jinoyat kodeksida "korruptsiyaga oid jinoyatlar"ga qaysi turdag'i jinoyatlar kirishi nazarda tutilmagan.

SHu sababli, mazkur qonun loyihasi bilan Jinoyat kodeksining sakkizinch bo'limi "korruptsiyaga oid jinoyatlar" degan yangi atama bilan to'ldirilib, 15 turdag'i jinoyat tarkiblari korruptsiyaga oid jinoyatlarga kiritilmoqda.

#### **5.4. Milliy qonunchilikda korruptsiyaga oid jinoyatchilik uchun javobgarlik masalalari**

Korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun aybdor shaxsga nisbatan jazo choralarini yanada kuchaytirish maqsadida, jinoyatlar mansab mavqeini suiiste'mol qilish yoki xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar uchun 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilmoqda.

"Pora olish", "pora berish" va "pora olish-berishda vositachilik qilish" qilmishlar uchun Jinoyat kodeksining tegishli moddalarining uchinchi qismi sanktsiyasi og'irlashtirilib, 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanmoqda.

Statistika bo'yicha mansabdor shaxslarning jinoyatlari oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 2018 yilda 556 mlrd., 2019 yilda 1,858 trln.,

2020 yilda 500,1 mld., 2021 yilning 9 oyida 658 mld. so'm moddiy zarar yetkazilgan. Mazkur qonun loyihasi bilan mansabdar shahslarga nisbatan choralar kuchaytirilmoqda. Ya'ni "Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish", "Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish", "Hokimiyat harakatsizligi", "Mansab soxtakorligi" va "Hokimiyatni suiiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi" jinoyatlar agar "g'arazgo'ylik" niyatida sodir etilsa, korruptsiyaviy jinoyat hisoblanishi belgilanib, mazkur harakatlar uchun og'irroq jazolar belgilanyapti.

SHuningdek, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, firibgarlik, soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovslash uchun hukm qilingan, biroq jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni to'liq qoplamagan shaxslarga hamda poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish tatbiq qilinmasligi nazarda tutilmoqda.

Korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, bunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga yengillashtiruvchi normalarni qo'llashni cheklash maqsadida, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish muddatlari ijtimoiy xavfi katta bo'lмаган va uncha og'ir bo'lмаган korruptsiyaviy jinoyatlar uchun 10 yil, og'ir va o'ta og'ir korruptsiyaviy jinoyatlarga nisbatan esa tatbiq etilmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, qonun loyihasi mamlakatda korruptsiyaning oldini olishga, korruptsiyaga qo'l urgan shaxslarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashga, xalqaro reyting va indekslarda yurtimizning o'rnini yaxshilashda xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ismailov B.I., Mamanov S.S. “Formirovanie sistem komplaensa kak effektivnogo instrumenta protivodeystviya korruptsii v chastnom sektore” (ilmiy makola)// O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasisining “Yuridik fan va xukukni kullash amaliyotining dolzarb muammolari” nomli «yosh olimlar minbari» mavzusidagi ilmiy-amaliy KONFERENTSIYa materiallari - 62 bet.
2. Mamanov S.S. O’zbekistonda korruptsiyaga karshi kurashish soxdsida komplaens nazorat (compliance control) xizmatini joriy etish masalalari. (ilmiy makola)//Toshkent davlat yuridik universitetning “Bakalavr va magistratura talabalarining ilmiy ishlar tuplami”;
3. Mamanov S.S. Korruptsiyaga karshi kurashish komplaens nazorat tizimining o’ziga xos jixatlari, “AQSH modeli” misolida (ilmiy makola)//O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyam magistratura tinglovchilarining ilmiy makolalar tuplami (maxsus son).
4. Mamanov S.S. Korruptsiyaga karshi komplaens nazorati. U nima va korruptsiyaga kay darajada barxam bera oladi?// <https://kun.uz/98238601>.
5. Kuchkarov Z.I. Oliy ta’lim soxasida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishda Gruziya tajribasi (ilmiy makola) //Uzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyam magistratura tinglovchilarining ilmiy makolalar tuplami (maxsus son).

## **6-Mavzu. Korruptsiyaga qarshi kurashish soxasida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi (institutsional tizim misolida).**

### **REJA:**

- 6.1. Xalqaro tashkilotlarning korruptsiyaga qarshi kurashishga oid tavsiyalari: OECP, Transparency International, Bank nazorat buyicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari misolida.
- 6.2. Korruptsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi: AQSH, Buyuk Britaniya, Sloveniya, Xitoy kabi davlatlarning samarali amaliyoti.
- 6.3. O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashishda institutsional tizimning shakllanishi.
- 6.4. O'zbekiston Respublikasida Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining vazifa va vakolatlari. Agentlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar tavsifi.

### **6.1. Xalqaro tashkilotlarning korruptsiyaga qarshi kurashishga oid tavsiyalari: OECP, Transparency International, Bank nazorat buyicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari misolida.**

Bugun O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi keskin va murosasiz kurash olib borilmoqda. Xususan, "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, shuningdek Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturining tasdiqlanishi mamlakatda korruptsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni samarali amalga oshirilishini ta'minladi. Misol uchun, qisqa vaqt ichida korruptsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid beshta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan, "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi, "Davlat xaridlari

to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Davlat rahbarining bir qator Farmonlari qabul qilindi.

SHuni alohida qayd etish joiz, O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashishni bosh maqsad qilgan alohida davlat organini tashkil etish yuzasidan Prezident Farmoni loyihasini tayyorlash bo'yicha faol sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Loyihada mazkur organning tashkil etilishi va faoliyat yurtishining huquqiy asoslari, maqsad va vazifalari, huquq hamda majburiyatlari, shuningdek, mamlakat Prezidenti va parlamentiga hisobdorlik belgilanishi nazarda tutilishi kerak. SHu munosabat bilan, ushbu sohadagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, ayniqsa, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Biz olib borgan tahlillar korruptsiyaga qarshi kurashish masalalariga institutsional yondashuv bir qator ijobiy jihatlarga ega bo'lishini ko'rsatdi. Mazkur muammoga kompleks yondashuvni amalga oshirish, jamiyatda mavjud korruptsiya darajasini pasaytirish borasidagi vazifalarni samarali hal etish imkonini beradi. SHu bilan birga, korruptsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organlarning muvaffaqiyat qozongan uchta asosiy faoliyatini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin:

- 1) korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi chora-tadbirlarni olib borish;
- 2) tergov vakolatlari, nazorat funktsiyalari;
- 3) boshqa idoralardan mustaqil ravishda o'z faoliyatini olib borish, faqat davlat hokimiyatining oliy organlariga hisobdor bo'lish.

Korruptsiyaga qarshi kurashish borasida tavsiyalarni ishlab chiqish bo'yicha yetakchi xalqaro tuzilma – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tadqiqotiga ko'ra, huquqni muhofaza qilish organlari vakolatlariga korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'p maqsadli idoralarning modeli kompleks yondashuvning eng yorqin namunasidir. Ushbu turga tegishli bo'lган idoralar quyidagi:

– tergov faoliyatini olib borish, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o’ziga xos siyosatni ishlab chiqish, tahliliy faoliyat, jinoyatlarning oldini olishda ko’maklashish, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik qilish, ma’lumotlarni to’plash va tahlil qilish, korruptsiyaga qarshi kurashish dasturining bajarilishini monitoring qilib borish kabi vazifalarni bajaradi.

Bunday modelni Gonkongning korruptsiyaga qarshi kurashish Mustaqil komissiyasi va Singapurning korruptsiya faoliyati bo'yicha tergov Byurosi bilan tenglashtirish mumkin. Singapur Byurosi o'z ichiga – tergov, ma'lumot va axborot, ko'maklashish bo'limlarini oladi. Bo'limlar ichida eng kattasi Tergov bo'lib, u Byuro tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar uchun mas'ul sanaladi. Singapur tajribasi bir qator mamlakatlarda joriy etildi. Jumladan, 2005 yilning dekabrb oyida Pol'sha politsiya (jinoyatni fosh qilish) hamda axborot-tahliliy funktsiyalarni bajaruvchi Korruptsiyaga qarshi kurashish markaziy byurosini tashkil etish to'g'risidagi qonunni qabul qildi. Byuro faoliyati Pol'sha maxsus organlari ishlari bo'yicha Seyma komissiyasi tomonidan nazorat qilinadi. Bu haqda ma'lumot maxfiy xarakterga ega.

E'tirof etish kerakki, shunga o'xhash tajriba Latviya, Litva va Ukraina kabi sobiq ittifoq mamlakatlarida ham qo'llanilgan. Xususan, Latviyada korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha Byuro mavjud. Bunda qonun chiqaruvchilar tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashishda qonunchilikka qat'iy rioya qilish hamda Byuro faoliyati ustidan parlament nazoratining g'oyatda samarali mexanizmi nazarda tutilgan. SHuningdek, bunda deputatlik so'rovlaring umume'tirof etilgan amaliyoti, yuqorida qayd etilgan huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlarini maxsus parlament qo'mitalariga taklif qilish, maxsus ad hoc komissiyalarini tuzish va boshqalar qo'llanilib kelinmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, korruptsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organning korruptsiyaning oldini olish borasidagi vazifalari ham faoliyatning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini oldini olishga qaratilgan

korruptsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organlar faoliyatini yuritishda katta tajribaga ega bo'lgan Frantsiya, Ruminiya, Hindiston, Koreya Respublikasi, Finlyandiya, Norvegiya, Daniya kabi qator mamlakatlar mavjud. Masalan, bunga Frantsiyada Frantsiya Adliya vazirligi shafeligidagi korruptsiyaning oldini olish bo'yicha idoralararo organ bo'lgan Markaziy xizmatning tashkil etilishi mantiqiy javob bo'ladi. Finlyandiyada korruptsiyaga qarshi kurashish bilan Adliya ombudsmani shug'ullanadi, u Finlyandiya Prezidenti tomonidan tayinlanadi va boshqa davlat organlaridan mutlaqo mustaqil hisoblanadi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish organining samarali faoliyatida mahalliy bo'linmalarning roli muhim ahamiyatga ega. Xususan, Germaniya va Avstriya tajribasi ham korruptsiyaga qarshi kurashishda mahalliy tuzilmalarning muhim rolъ o'ynashini ko'rsatadi. Germaniyaning davlat apparatida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy bo'g'ini, bu, federal va yer vazirliklari, idoralaridagi korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus bo'linmalar (odatda bo'limlar)dir. Avstriyada korruptsiyaga qarshi kurashish bilan maxsus prokuratura shug'ullanadi. Uning shtab-kvartirasi Vena shahrida bo'lib, Avstriyaning barcha yirik shaharlarida o'z filiallariga ega.

Umuman olganda, shuni ta'kidlash lozimki, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ixtisoslashtirilgan organ vakolat, hokimiyat organlari tuzilmasidagi qoidalar, muassasa rahbarini tayinlash va olib tashlash tartibi, ichki tashkiliy tuzilma, vazifalar, yurisdiktsiya, huquq va majburiyatlar, byudjet, kadrlar tarkibini shakllantirish qoidalari (xodimlarni tanlash qoidalari, ayrim hollarda ularning immunitetlari to'g'risidagi qoidalari va boshqalar), boshqa institutlar bilan o'zaro hamkorlik qilish (ayniqsa, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari), hisobdorlik hamda hisobot berish tizimi va hokazolar aniq belgilab berilgan qonunchilik bazasiga ega bo'lishi zarur.

Yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalarni hisobga olish O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organni

tashkil etish tashabbusini amalga oshirish, mamlakatda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy va institutsional bazani yanada takomillashtirish, shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmini joriy etishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytganda, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid 2020 yilga mo'ljallangan Davlat dasturining Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ikkinchi ustuvor yo'nalishi, 53-bandida nazarda tutilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida davlat organini tashkil etish, bu boradagi Prezident farmonida mazkur organ faoliyatining huquqiy asoslarini, vazifa va funktsiyalarini, huquq va majburiyatlarini belgilashda xalqaro tajribani atroflicha o'rghanish va uning eng maqbul jihatlarini aks ettirish muhim ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi.

## **6.2. Korruptsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi: AQSH, Buyuk Britaniya, Sloveniya, Xitoy kabi davlatlarning samarali amaliyoti.**

Bugungi kunda korruptsiya muammosiga jahoning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korruptsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

Ta'kidlash lozimki, korruptsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jahbalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarb kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida* ta'kidlaganidek, “Jamiyatimizda korruptsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi”.

Korruptsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 2003 yil 31 oktyabrdan qabul qilingan BMT ning Korruptsiyaga qarshi Konventsiyasi;
- 2000 yil 15 noyabrdan qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konventsiyasi;
- 1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining “Korruptsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida” gi Konventsiyasi;
- 1999 yil 4 noyabrdagi “Korruptsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida” gi Konventsiyalari va boshqalar.

O'zbekiston yuqorida ta'kidlangan xalqaro normalardan 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi Konventsiyasi, shuningdek, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdag'i jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

### **6.3. O’zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashishda institutsional tizimning shakllanishi.**

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvar kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://www.press.uz/>. – O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati rasmiy web-sayti va qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli “*O’zbekiston Respublikasida Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida*” gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korruptsiyaga oid huquqbazarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korruptsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida *Korruptsiyaga qarshi kurash Agentligi* tashkil etildi.

Farmon bilan, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining SHarqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korruptsiyaga qarshi kurashish bo’yicha tarmog’ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta’minlash, BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi va O’zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalaring bajarilishi bilan bog’liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo’nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo’yicha O’zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korruptsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

SHuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

- 2020–2021 yillarda barcha davlat va xo’jalik boshqaruvi organlarida korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) ni bosqichma-bosqich joriy etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;
- korruptsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta’minotni joriy etish.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko’rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-tonli “O’zbekiston Respublikasida Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 06/20/6013/1002-ton.

Korruptsiyaga qarshi komplaens nazorati – davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korruptsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to’qnashuvini o’z vaqtida aniqlash va chek qo’yish, qonun buzilishi va korruptsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabar berishni o’zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Qayd etish lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020 yil 4 fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari

bo'yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korruptsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir, xususan bugungi kunda:

- Ombudsmanning "10-96" ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;
- fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korruptsiyaviy holatlar bo'yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to'g'risidagi murojaatlari tahlil qilinib boriladi, ularning natijalari odob-axloq komissiyasi yig'ilishlarida muhokama qilinadi.
- Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korruptsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo'l-yo'riqlarni tushuntirish, xizmat vazifasiga qo'yiladigan asosiy majburiyatlar, ta'qiqlar, cheklovlar, talablar va idoraviy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kunidan kechiktirmay tushuntiriladi.
- Vakilga korruptsiya bilan bog'liq bo'lgan murojaatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020 yilning 6 oy davomida "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasiga muvofiq Ombudsman tomonidan Bosh prokuraturaga 17 ta murojaat yuborilgan (2019 yil – 21 ta). Ushbu murojaatlardan 2 tasi o'z tasdig'ini topgan.

Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida ***Transparency International*** xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan "**Korruptsiyani qabul qilish indeksi**" da O'zbekiston 180 ta davlat orasida 2017 yilda 157-o'rinn, 2018 yilda esa 158-o'rinni egallagan bo'lsa, 2019 yilda 25 ball bilan 153-o'rinni egallab, 5 pog'onaga ko'tarildi.

Bundan tashqari, ***Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi "Korruptsiyadan holilik" indikatorida*** O'zbekiston 2019 yilda

0,38 ball bilan 95-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020 yil bo'yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o'rinni egallab, 6 pog'onaga ko'tarilganligi malakatimizda korruptsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir.

Mamlakatimizda korruptsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, *2017–2019 yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning* pora olishi bilan bog'liq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, *2019 yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga* nisbatan korruptsiya bilan bog'liq 590 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilganligi, korruptsiyaga qo'l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning *25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi* vazirliklar, idoralar hamda korxona va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korruptsiya jinoyatlarining asosan tibbiyat, ta'lim, davlat xizmati ko'rsatish, xususan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga litsenziya va ruhsat berish bilan bog'liq sohalarda hali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab davlatlarda, xususan *Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH* kabi rivojlangan mamlakatlarda "Davlat xizmati to'g'risida" gi, "Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to'g'risida" gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek sudyalarning xatti-harakat me'yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

E'tiborli jihat shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin bo'lgan sovg'a yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qo'yilgan. Masalan, AQSH da ushbu miqdor 20 AQSH dollarini, Frantsiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdor

shaxslarning pul ko'rinishidagi sovg'alar qabul qilishi qat'iyan taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatuvchi mansabdar shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog'ozlar kabi to'lovlarini olishi ta'qiqlangan.

SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo'lib, unga ko'ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg'alar olishi taqiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg'alar, vazirlikka o'tkaziladigan tartib joriy qilindi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ilg'or xorijiy davlatlarning korruptsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo'llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mansabdar shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda ***150 dan ortiq mamlakatda*** qo'llanilmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korruptsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to'qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yo'lga qo'yilgan. Korruptsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e'lon qilinishi korruptsiyaga qarshi samarali vosita ekani e'tirof etilgan.

Bu borada ***Daniya*** tajribasiga ko'ra, 2002 yilda qabul qilingan "Korruptsiya to'g'risida" gi Daniya Qonuni korruptsiyaning oldini olish

chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, ta'sirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili o'z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aktsiyalarga ega bo'lishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraliqi va shaffofligini, korruptsion holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Korruptsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va ta'lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korruptsion harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bundan tashqari, *Finlyandiyada* Moliya vazirligi davlat xizmatchilari axloqining asosiy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanishi bilan xarakterlidir. Moliya vazirligi hukumat amaldorlari uchun imtiyozlar va sovg'alarni berish va olish tartibini belgilaydi, shuningdek davlat xizmatchilari daromadlarini tekshirish vakolatiga ham ega. Finlyandiya milliy taftish byurosi (NAOF) esa mamlakatda korruptsiyani oldini olish maqsadida *yilda ikki marotaba* markaziy hukumat moliyasini tekshiradi, soliq siyosatini nazorat qiladi va siyosiy partiyalar va saylov kompaniyasini moliyalashtirishni nazorat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar, korruptsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur turdag'i jinoyatlarni oldini olish borasida mamlakatimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatmoqda:

**birinchidan**, “Davlat xizmati to'g'risida” gi Qonun loyihasi ishlab chiqilib, muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, hali hamon mazkur Qonun qabul qilinganicha yo'q. SHu sababdan “Davlat xizmati to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini, shuningdek davlat xizmatchilarining Axloq kodeksini qabul qilish, mazkur normalarda davlat xizmatchilarining o'z faoliyatini olib borish jarayonida amal qilishi lozim bo'lgan hamda

korruptsiyani vujudga kelishiga imkon yaratib beruvchi sabab va shartsharoitlarni oldini olishga qaratilgan me'yorlar aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir;

**ikkinchidan**, xalqaro va ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishni tartibga soluvchi normalarni milliy qonunchilik tizimiga implemenetatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida mansabdor shaxslarning mol-mulkidagi o'zgarishlarni muntazam ravishda kuzatish imkoniniyatini beradi, deklaratsiyalarining ommaviyligi, ya'ni jamoatchilik uchun ochiqligi esa ularning korruptsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini yanada oshirishi shubhasizdir.

Korruptsiya muammosi so'ngi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzu hisoblanadi. Hatto, ayrim siyosatchilar tomonidan korruptsiyaga global inqirozni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ham ta'rif beriladi. Korruptsiyaning xalqaro munosabatlarga ta'sirini o'rgangan tadqiqotchilar esa, rivojlangan "birinchi dunyo" mamlakatlari korruptsiya yordamida o'zlariga ma'qul kelmagan hukumatlarni ag'darib tashlashi, o'zlariga xayrixoh rejim o'rnatishi, amaldagi hokimiyatga oppozitsiyani moddiy ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi degan xulosani bildirishgan.

Barcha xorijiy mamlakatlar amaliyotida korruptsiyaning oldini olishda samarali kriminologik tadqiqotlardan foydalanishga alohida e'tibor beriladi. Xususan, Skandinaviya davlatlari - Daniya, Finlyandiya, Islandiya, Norvegiya va SHvetsiya adliya vazirlari tomonidan 1962 yilda tashkil etilgan Kriminoliya bo'yicha Skandinaviya kengashi bu mamlakatlarda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini shakllantirishda ishtirok etishadi. Kengashning asosiy maqsadlari – ishtirokchi mamlakatlarda kriminologiya tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha hukumatlarga tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Bu mamlakatlardagi jinoyat-huquqiy doktrinada axloqiy kategoriylar va ijtimoiy qadriyatlar tizimi alohida o'rin tutadi. Kriminoliya bo'yicha Skandinaviya kengashi

15 ta a'zodan – har bir davlatdan uchtadan vakil, ikkitasi taniqli kriminolog va bitta adliya vazirligi vakilidan iborat . Skandinaviya mamlakatlari aholisi huquqiy ongiga ijtimoiy tenglik g'oyasi, jamoatchilik va yuridik institutlarga ishonch, shaxs darajasida har xil hodisalarga bag'rikeng-lik, shuningdek, “jinoyat”, “jinoyatchi”, “jazo” va “javobgarlik” singari huquqiy kategoriyalarga nisbatan namoyon bo'luvchi umumiyadolat hissi xos hisoblanadi . Umuman Skandinaviya mamlakatlari uchun jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlari asosiy kriminogen dominant degan qarash ustunlik qiladi. Skandinaviya davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki korruptsiyaga qarshi samarali kurashni tashkil qilish uchun kriminologik tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, bunda huquq yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalar kriminologiya sohasidagi tad-qiqotlarni muvofiqlashtirish maqsadga muvofiqdir . SHuni aytish lozimki, Transperensi Interneyshnl (Transparency International) tashkiloti tomonidan 2009 yilda e'lon qilingan jahon mamlakatlarining korruptsiyalashganligi darajasini aks ettiruvchi reytingda Skandinaviya mamlakatlarida bu ko'rsatkich eng past darajada ekanligi qayd etilgan. Unga ko'ra, Yangi Zelandiya, Daniya, Singapur, SHvetsiya, SHveytsariya, Finlyandiya mamlakatlari bu borada eng past ko'rsatkichga ega bo'lган davlatlar hisoblanadi.

Korruptsiya, eng avvalo, har qanday mamlakatda davlat apparatining xalq oldidagi minimal majburiyatlarini bajarishda ojizligini anglatadi. Bu Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyoning ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarini ham qamrab olgan va mazkur mamlakatlar uchun jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatlarning barchasida korruptsiya xalqning qashshoqligi, mamlakatning qoloqligiga sabab bo'lmoqda. Xususan, Gonkongda tashkil etilgan Korruptsiyaga qarshi kurashuvchi mustaqil komissiya mazkur faoliyatda muvaffaqiyatli va keskin choralarini amalga oshira oluvchi institutlarga namuna bo'lishi mumkin. Hokimiyat idoralari faoliyatini sinch-kovlik bilan – rasmiy institutlar, alohida fuqarolar tomonidan monitoring qilib borish, shuningdek, aybdorlarni sud ta'qibi Gonkongdagi korruptsiyaga qarshi kurashning asosi sifatida xizmat qiladi.

AQSHda korruptsiyaga qarshi kurashga qaratilgan maxsus qonun hujjati qabul qilingan. “Foreign Corrupt Practices Act” deb nomlangan mazkur qonun hujjati Amerika kompaniyalarini shartnomalar tuzishda imtiyozlar va kafolatlar olishda xorijiy mansabdar shaxslarga pora bergenlik uchun javobgarligini belgilaydi.

Singapurning sobiq bosh vazirlaridan Li Kuan Yu (1959-1990) “Qachonki hokimiyat xalq ishonchini oqlash uchun emas, shaxsiy boylik orttirish maqsadida faoliyat yurita boshlasa, bu axloq muammosi hisoblanadi. Uzoq vaqt mavjud bo’lishini istagan jamiyat halollik printsipiga amal qilishi lozim, aks holda jamiyat yashay olmaydi. «Korruptsiyani to’xtatib qolishning eng oson usuli mansabdar shaxslarning o’z bilganlaricha harakat qilishlari imkoniyatlarini kamaytirishda» degan edi . SHuni ta’kidlash joizki, Singapurning korruptsiyaga qarshi siyosati bu milliy qadriyatlarga amal qilishdan ko’ra ko’proq zaruriyat tufayli amalga oshirildi. Singapur xorijiy investitsiyalarni mamlakatga jalb qilish uchun ularni noto’g’ri maqsadlarda foydalanish imkoniyatini yo’qqa chiqardi. Transperensi Interneyshnl (Transparency International) tashkiloti e’lon qilgan 2009 yil mamlakatlarning korruptsiyalashganligi darajasini aks ettiruvchi reytingda Singapur korruptsiya darajasi past bo’lgan uchinchi, Osiyo mamlakatlari ichida esa, birinchi o’rinda turishi qayd etildi. Mamlakatda sodir etilgan ayrim korruptsiya hodisalari ro’y berganda uning ishtirokchilari tergov qilinib, aybdorlar sudlanib jazoga tortilgan. SHuni alohida qayd etish kerakki, korruptsiyaga qarshi kurash uzlucksiz davom etmoqda. Singapurda korruptsiyaga qarshi kurashga rahbarlik bevosita siyosiy rahbarlar va mansabdar shaxslarning o’zlari tomonidan amalga oshiriladi va bu jamoatchilik tomonidan qo’llab-quvvatlanadi. Korruptsiyaga qarshi kurashga ixtisoslashgan organ Korruptsiya hodisalarini tergov qilish Byurosi hisoblanadi. Bu mustaqil organ korruptsiya bilan bog’liq ishlarni tergov qiladi va Singapur iqtisodiyotining davlat va xususiy sektorida uning oldini olish chora-tadbirlarini ko’radi. Byuro 1952 yilda tashkil etilgan, uning vakolatlari “Korruptsiyaning oldini olish to’g’risida”gi Aktda belgilab qo’yilgan. Uning rahbari direktor hisoblanadi

va bevosita Bosh vazir oldida hisobdor sanaladi. Bu biror-bir vazirning uning faoliyatiga aralashishiga, tergovni to'xtatish va boshqacha ta'sir qilish mumkin emasligiga xizmat qiladi. Byuroga davlat xizmatida halollik va sotilmaslik printsipi amal qilishi, xususiy sektorda korruptsiya aralashmagan bitimlar tuzilishi uchun javobgarlik yuklatilgan. SHuningdek, uning vazifalari qatoriga davlat mansabdor shaxslarining o'z vazifalarini suiste'mol qilish holatlarini tekshirish va shunday holatlar aniqlanganda tegishli organlarga intizomiy javobgarlikka tortish haqida ma'lumotlar berish vazifalari ham kiradi. Byuro davlat organlarining korruptsiya-lashishi sabablarini, korruptsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan davlat xizmatining zaif tomonlarini ham o'rganadi. Singapurda (Moliya vazirligi) 1973 yil iyul oyidan boshlab maxsus korruptsiyaga qarshi kurash Dasturi amalga oshirila boshlangan. Dasturda qisman quyidagilar nazarda tutilgan edi: fuqarolar va tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni turli xil sansalorliklar va sudrashlarga yo'll qo'ymaslik maqsadida takomillashtirish; yuqori turuvchi mansabdor shaxslarning quyi turuvchi mansabdor shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirishda oshkorali kni ta'minlash; barqaror korruptsiyaviy bog'lanishlarning oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar rotatsiyasini kiritish; to'satdan tekshirishlar o'tkazish; korruptsiyaga qarshi kurashda muhim hisoblangan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash; korruptsiyaga qarshi kurash choralari majmuuni har 3-5 yilda qayta ko'rib chiqish.

O'tgan asrning 90-yillarida yapon tadqiqotchilari korruptsiyaviy jinoyatchilikni kamaytirishda: hokimiyat tuzilmalari faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni oshkorlashtirish, mansabdor shaxslarni nazorat qilish uchun markaziy va mahalliy miqyosda mustaqil ombudsman institutini joriy etish, shu turdag'i jinoyatlarga qattiq jazo tayin-lash (deputatlikka saylanishdan mahrum qilish, umrbod yuqori lavozimga ko'tarilishdan mahrum qilish, saylov guruhidagi shunga aloqador kishilarni jazolash), saylov kompaniyalarini moliyalashni to'la davlat mablag'lari hisobidan amalga oshirishni taklif etgan edilar. Yaponiyada korruptsiyaga qarshi kurashish bilan birga noto'g'ri(tuhmatdan) pora olish haqida xabar berish ham, pora

oluvchilarga nisbatan belgilangan jazoga – uch yil muddatga katorga jazosi yoki jarima jazosiga tortilishi mumkin. Jinoyat qonunchiligida amalga oshirilgan islohotlar orqali bir qator mansabdorlik jinoyatlariga beriladigan jazolar og'irlashtirildi. Masalan, davlat va jamoat arboblarining mansabdorlik vakolatlari bilan hokimiyatni suiste'mol qilishiga 2 yilgacha katorga yoki turma qamog'i jazosi belgilandi. Ilgari bunday jinoyat uchun shaxs 6 oygacha shunday jazoga tortilardi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda korruptsiyaga qarshi kurashish har bir davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalişlaridan biri bo'lib qolmoqda. Korruptsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash tizimini barpo etish bu borada keng ko'lamli xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish hamda unga tanqidiy yondoshgan holda milliy qonunchilik va amaliyatga tatbiq etishni taqozo qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uzbekiston Respublikasining 07.07.2008 yildagi “Birlashgan Millatlar Tashkilotining korruptsiyaga karshi Konvensiyasiga (N'yu-York, 2003 yil 31 oktyabri) Uzbekiston Respublikasining kushilishi tugrisida” gi Konuni // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/1369505>.
2. Convention on Combating Bribery of Foreign Public Officials in International Business Transactions and related documents. [Elektron manba]. URL: [www.oecd.org/daf/anti-bribery/ConvCombatBribery-ENG.pdf](http://www.oecd.org/daf/anti-bribery/ConvCombatBribery-ENG.pdf).
3. Commentaries on the Convention on Combating Bribery of Foreign Public Officials In International Business Transactions. [Elektron manba]. URL: [www.oecd.org/daf/anti-bribery/ ENG.pdf](http://www.oecd.org/daf/anti-bribery/ ENG.pdf).
4. Antikorruptionnye reformy v Uzbekistane (4-y raund monitoringa v ramkax Stambul'skogo plana deystviy po bor'be s korruptsiei) // [Elektronnyy resurs]. URL: <https://www.oecd.org/commision/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th-Round-Monitoring-Report-2019-RUS.pdf>

5. “ISO 37001 - Anti-bribery management systems”//[DneKTpoH manba].

URL: <https://www.iso.org/ru/standard/62342.html>.

6. “ISO 19600:2014 Compliance management systems-Guidelines7/[3neKTpoH manba]. URL: <https://www.iso.org/ru/standard/62342>.

**7-Mavzu. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik. Korruptsiyani idrok yetish indeksining mazmuni va axamiyati.**

**REJA:**

- 7.1. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyat yo'nalishlari, vazifalari.
- 7.2. Transparenci International nodavlat tashkilotining tashkil yetilish tarixi va vazifalari. “Korruptsiyani idrok yetish indeksi”ning mazmuni va ahamiyati.

**7.1. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyat yo'nalishlari, vazifalari.**

2020 yil 27 noyabr kuni Bosh prokuratura Akademiyasi tomonidan «Yuksalish» umummilliy harakati, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi bilan hamkorlikda, O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi, “Mintaqaviy muloqot” XNNT ko'magida “Korruptsiyaga qarshi kurashish borasida amaliy tadqiqotlar o'tkazish: akademik hamjamiyat va nodavlat tashkilotlarining hamkorlik masalalari” mavzusida xalqaro konferentsiya o'tkazildi.

Konferentsiyadan ko'zlangan maqsad korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida akademik doiralar va nodavlat tashkilotlar hamkorligini kengaytirish, shuningdek mazkur sohada jamoatchilik nazoratini rivojlantirish masalalarini muhokama qilishdan iborat.

Tadbirda BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi, Hertie boshqaruvi maktabi (Germaniya), Kembridj universiteti (Buyuk Britaniya) ekspertlari, “Transparency International” xalqaro nodavlat

tashkiloti vakillari, mahalliy akademik doiralar va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari ishtirok etishdi.

Xalqaro konferentsiyada ishtirokchilar korruptsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki, davlat xaridlarini amalga oshirishda korruptsiya holatlarini aniqlash, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish, davlat xizmatchilarining aktivlari, daromadlari va katta xarajatlari to'g'risidagi deklaratsiyalarining muvofiqligini tekshirish, davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning jamoatchilikka yetkazilishini ta'minlash borasida tajriba almashdilar.

Faol muhokamalar jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari va akademik hamjamiyat o'rtaida korruptsiyaga qarshi kurashish, turli sohalarda mavjud holatni tahlil qilish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, korruptsiya xavflarini aniqlash, tadqiqotchi mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Xalqaro konferentsiya yakunlari bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilib, konferentsiya materiallarini nashr etish rejalashtirildi.

## XALQARO HAMKORLIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 iyun 2020 yildagi PF-6013-soni Farmoniga asosan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil topib, korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi **xalqaro hamkorlik uchun mas'ul** bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangan.

**Agentlikni asosiy vazifalaridan biri** - korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imidjini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

## **Bugungi kunda Agentlik qator tashkilotlar bilan halqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi:**

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi,
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi (BMT TD),
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi (BMT GJB),
- Birlashgan Millatlar Tashkilotning Bolalar jamg'armasi (YuNISEF),
- Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (EXHT) O'zbekistondagi loyihalar koordinatori idorasi,
- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti
- Evropa ittifoqi delegatsiyasi vakolatxonasi
- Evropa kengashi hamda AQSH Davlat departamentining narkotik moddalar va huquqni muhofaza qilish masalalari bo'yicha byurosi (INL)
- AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)
- Jahon banki
- Xalqaro valyuta jamg'armasi
- Evropa tiklanish va taraqqiyot banki
- Germaniyaning Konrad Adenauer nomidagi jamg'armasining O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi
- Slovenianing "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat tashkiloti

Xalqaro tashkilotlar ko'magida **3 ta** O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihalari, **2 ta** Vazirlar Mahkamasi loyihalari va boshqa hujjatlar, jumladan, Investitsiya loyihalarini korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish metodologiyasi hamda O'zbekistonning korruptsiyani qabul qilish Milliy indeksi metodologiyasi loyihalari ishlab chiqildi.

### **Xalqaro hamkorlik doirasida imzolangan hujjatlar:**

**2020-2021 yillar davomida** Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan xalqaro hamkorlikka oid 8 ta memorandumlar imzolandi:

- **2020 yil 7 dekabry** O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga karshi kurashish agentligi va Konrad Adenauer nomidagi jamg'armaning

O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi o'rtasida Hamkorlik memorandumi;

- **2021 yil 5 iyunъ** Agentlik va Tojikiston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati va korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida Anglashuv memorandumi;
- **2021 yil 16 iyunъ** Agentlik va Qozog'iston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida Anglashuv va hamkorlik memorandumi;
- **2021 yil 11 oktyabrъ** Sloveniya Respublikasi Korruptsiyani oldini olish komissiyasi va O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasidagi Anglashuv memorandumi;
- **2021 yil 28 oktyabrъ** Agentlik, Buyuk Britaniya va SHimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi xukumati tomonidan Buyuk Britaniyaning Toshkentdagi elchixonasi va Hukumatlararo Hamkorlik Xizmati o'rtasida hamkorlik o'rnatish yuzasidan Anglashuv memorandumi;
- **2021 yil 17 noyabrъ** Agentlik va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti o'rtasidagi Anglashuv memorandumi;
- **2021 yil 18 noyabrъ** Xalqaro korruptsiyaga qarshi akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida Anglashuv memorandumi;
- **2021 yil 1 dekabrъ** Agentlik va Ozarbayjon Respublikasi Bosh prokurori huzuridagi korruptsiyaga qarshi kurashish bosh boshqarmasi o'rtasidagi korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Anglashuv memorandumi.
- **2022 yil 12 may** Agentlik va Malayziya Korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi.
- **2022 yil 24 may** Agentlik va Latviya Korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish byurosni.

**Xalqaro aloqalar yo'lga qo'yilgan xorij davlatlarining idora va tashkilotlari:**

- Malayziya korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi;

- Koreya Respublikasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va fuqarolik huquqlari bo'yicha komissiyasi;
- Frantsiya Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- Xitoy Xalq Respublikasi Milliy nazorat komissiyasi;
- AQSH Davlat departamentining Xalqaro narkotik va huquqni muhofaza qilish masalalari bo'yicha byurosi;
- Singapur Korruptsiya jinoyatlarini tergov qilish byurosi;
- Latviya Respublikasi Korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish byurosi;
- Qozog'iston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- Tojikiston Davlat moliyaviy nazorati va korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- Ozarbayjon Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish bosh boshqarmasi;
- Ukraina Korruptsiyaning oldini olish milliy agentligi, Korruptsiyaga qarshi kurashish byurosi;
- Moldova Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy markazi;
- Afg'oniston Korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi;
- Eron Islom Respublikasi Bosh inspeksiyasi tashkiloti;
- Pokiston Milliy hisobdorlik byurosi;
- Sloveniya Respublikasi Korruptsiyaning oldini olish komissiyasi;
- Misr Ma'muriy nazorat idorasi va Korruptsiyaga qarshi kurashish akademiyasi
- Germaniya Federal Ichki ishlar vazirligi, Germaniya Xalqaro huquqiy hamkorlik jamg'armasi va boshqalar.

Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining SHarqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash hamda BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni

muvofiglashtirish bo'yicha **O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori** vazifa va vakolatlari yuklatilgan. Bugungi kunda BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi **Konventsianing II va V boblarining O'zbekiston tomonidan bajarilish holatini** ko'rib chiqmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazida korruptsiyaga qarshi kurashish**

**DASTURI**

*(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi direktorining 2021 yil 5 yanvardagi 03-02/01-son buyrug'i bilan tasdiqlangan)*

**1. Umumiq qoidalar**

O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi (keyingi o'rinnlarda - Markaz deb ataladi)da korruptsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish Markazning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Markaz faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha barcha yo'nalishlarda korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, chek qo'yish, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, Markazda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida korruptsiyaga qarshi kurashish dasturini (keyingi urinlarda - Dastur) qabul qilish va amalga oshirish zaruriyatini takozo etdi.

**1. Dasturning asosiy maqsadi va vazifalari**

2. Markazda konuniylikni ta'minlash, xodimlarda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar tuknashuviga yo'l qo'ymaslik, korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni

sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash hamda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish Dasturining asosiy maqsadidir.

3. Quyidagilar Markazda korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- korruptsiyani keltirib chiqaruvchi xavfni baholash va boshqarish;
- xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korruptsiyaga oid huquqbarliklarni aniqlashga, ularni oldini olishga va chek qo'yishga, oqibatlarini, shuningdek ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;
- korruptsiyaning holati va tendentsiyalari tug'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;
- korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni ta'minlash.

### **III. Dasturning asosiy yo'naliishlari**

#### **1-bob. Markazning barcha sohalarida korruptsyaning oldini olishga doir tashkiliy chora-tadbirlar**

3. Markazda korruptsiyani keltirib chikaruvchi xavfni aniqlash va boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
4. Markazning rasmiy veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarda vakant ish o'rnlari hamda nomzodlarga qo'yilgan talablar xaqida ma'lumotlar joylashtirib borilishini ta'minlash.
5. Xodimlarning attestatsiyadan utkazilish jarayonida jamoatchilik vakillari ishtiroqini, shuningdek, onlayn tarzda o'tkazilishini joriy qilish orqali shaffoflikni ta'minlash.
6. Ishlayotgan xodimlarni joy-joyiga qo'yish bo'yicha masalalarni qayta ko'rib chiqish. Bunda uzoq vaqt davomida bitta lavozimda ishlab kelayotgan xodimlarni aniqlash va ularni boshqa lavozimlarga o'tkazish bo'yicha ichki rotatsiyani amalga oshirib borish bo'yicha takliflar tayyorlash.

7. Xodimlarning ijtimoiy ahvolini o'rganib borish tizimini joriy etish. Bunda kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan va ko'p bolali xodimlar ro'yxatini shakllantirish va ularning holidan habar olib turish hamda zaruriyatga ko'ra, imkoniyatdan kelib chiqib, moddiy jihatdan ta'minlash choralarini ko'rib borish bo'yicha takliflar tayyorlash.
8. Tovar-moddiy boyliklarning adolatli taqsimlanishini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish. Bunda xodimlarning ish xajmi va extiyojidan kelib chiqib, xizmat avtomobilari va boshqa moddiy boyliklaridan foydalanish tartibini belgilash.
9. Davlat xaridlari bo'yicha har bir tovar pozitsiyasi kesimida xarid narxlarini respublika bo'yicha tahlil qilib borish, narxlarni eng maqbul bo'lishiga erishish.
10. Xodimlarga haq to'lash va hisob-kitoblarning to'g'rilingini monitoring qilish imkoniyatini yaratish, xodimlar uchun shikoyatlar berish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha takliflar tayyorlash.
11. Markaz tarkibiga kiruvchi Ma'muriy-moliyaviy bo'limning moliya-xujalik faoliyati bilan bog'lik ma'lumotlarni (davlat xaridlari bilan bog'lik shartnomalar ro'yxatini) Markaz xamda tashkilotlar veb-saytlarida e'lon qilib borish.
12. Asbob-uskunalar, sarflash materiallari va extiyot qismlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlashning yagona mexanizmlari va standartlarini joriy etish, ularni hisobga olishning axborot tizimini yaratish hamda davlat-hususiy sheriklik shartlari asosida moddiy-texnik resurslariga texnik xizmat ko'rsatishni autsorsingga berish bo'yicha takliflar tayyorlash.
13. Markaz faoliyatida korruptsiyaga qarshi kurashishda halqaro korruptsiyaga qarshi kurashuvchi tashkilotlar bilan xamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar tayyorlash.

## **2-bob. Markazda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish**

14. Markazda korruptsiyaga nnsbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va tarqatish.
15. Korruptsiyaga qarshi kurashish mavzusi doirasida ijtimoiy videorolik tayerlash xamda korruptsiya, halollik, to'g'rilik, qonunga hurmat, adolat tantanasi mavzularida targ'ibot materiallari, didaktik materiallar, videoroliklar tayerlash.
16. "Korruptsiyaga qarshi kurashish oyligi" tadbirlarni tashkil qilish.

**3-bob. Korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish hamda imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash**

17. Markazning rasmiy veb-saytida korruptsiyaga qarshi kurash maxsus sahifa ochish, kelib tushgan takliflarni muntazam tahlil qilish.
18. Markaz joylashgan ma'muriy binosida jismoniy va yuridik shahslar yoki ularning vakillarini qabul qilishda video va audioga yozib olish tizimini joriy etish orqali shikoyatlar kelib tushishini oldini olish bo'yicha takliflar tayyorlash.
19. Markaz xodimlari bilan har chorakda kamida bir marta profilaktik suhbatdan o'tkazish tartibini joriy etish.
20. Markazning mansabdor shahslari tomonidan sodir etilgan korruptsiyaga oid xatti-harakatlari hakida xabar bergan shahslarni mukofotlash tartibini joriy etish.
21. Markaz tomonidan boshqa tashkilotlarda o'rganish o'tkazishda odob-axloq qoidalarini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash.
22. Xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlarni belgilangan tartibda qoplashning qat'iy mexanizmini belgilash.

**1. Dasturning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar**

2. Markazda korruptsiyaga qarshi kurashish dasturini amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda:

- Markazda korruptsiya, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa huquqbazarliklarning oldi olinishi;
- Markaz faoliyatining ochiqligiga erishilishi va zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosiga nisbatan xodimlar mas'uliyatining yanada ortishi;
- Xodimlarning kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yuksalib borishi;
- Markaz faoliyatida korruptsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning samaradorligini ta'minlash.

### **1. Yakuniy qoidalar**

2. Mazkur Dastur talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

## **7.2. Transparenci International nodavlat tashkilotining tashkil yetilish tarixi va vazifalari. “Korruptsiyani idrok yetish indeksi”ning mazmuni va ahamiyati.**

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida davlat qurilishi va huquqiy siyosatning mazmun va mohiyatini aniqlashtirish, uning maqsad va vazifalarini islohotlarning bugungi taraqqiyoti asosida shakllantirib borish, inson manfaatlarini ta'minlashning strategik jihatdan yangi vositalar bilan bir qatorda, ham taktik xususiyatga ega bo'lgan yangi usullarni qo'llash, shaxs hamda jamiyat manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qilish, korruptsiyani oldini olishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyoji vujudga kelishi bilan belgilanadi.

Muhtaram Prezidentimiz SHavkat Miromonovich Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisidagi “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzuidagi ma'rurasida “Jamiyatimizda korruptsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbazarlik

holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur", deya ta'kidlaganlar.

Zero, korruptsiya – bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta'kidlab o'tish o'rinniki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Korruptsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. SHu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Xo'sh, rivojlangan mamlakatlarda korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar kuchaytirilishining sababi nimada?

Hozirgi davrda korruptsiya ko'pgina davlatlarning iqtisodiy va siyosiy salohiyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib bera oldi. Unga qarshi kurashish, muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Jahon mamlakatlarida korruptsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud. Korruptsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan SHvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korruptsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korruptsiyaga qarshi kurashda muhim o'rinni egallaydi.

Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya’ni, korruptsiyaga olib kelishi mumkin bo’lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korruptsiya darajasi juda past bo’lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan. Biz quyida Singapur davlatida korruptsiyaga qarshi kurashda qo’llanilgan usullar haqida batafsil to’xtalib o’tamiz.

Singapur davlati 1965 yil mustaqillikka erishgach korruptsiya darajasi eng yuqori bo’lgan davlatlar qatorida turar edi. Lekin bu illatga qarshi o’tkazilgan bir qator tadbirlar bu davlatda korruptsiyaning minimal darajaga tushishiga olib keldi. Birinchi navbatda bu yerda byurokratik jarayonlar yengillashtirilib, sud tizimining mustaqilligi oshirildi. SHu bilan birga korruptsiya jinoyatlari uchun sanktsiyalar og’irlashtirilib, fuqarolarga korruptsiyaga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilishda bosh tortganligi uchun juda katta moliyaviy sanktsiyalar belgilandi. Bir qator davlat idoralarida ommaviy “tozalashlar” o’tkazilib bu jarayonlar telekanallar orqali butun mamlakatga namoyish qilindi. Yuqorida sanab o’tilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korruptsiya darajasi eng past mamlakatlar ro’yxatida ilg’or davlatlar qatoriga olib chiqdi. SHuningdek, davlat xizmatchisining ahloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham Singapur davlatida korruptsiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri bo’lib xizmat qiladi.

Korruptsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribasini o’rganish shuni ko’rsatadiki faqatgina jinoiy qonunchilikni og’irlashtirish yo’li bilan bu salbiy illatga qarshi kurashib bo’lmaydi (ko’p davlatlarda juda ko’p miqdorda pora olganlik uchun o’lim jazosi mavjud). Bu illatni yengish uchun birinchi navbatda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytirish lozim bo’ladi.

Jahon tajribasida korruptsiyaga qarshi kurash bo’yicha o’zini oqlagan boshqa usullar bormi? Yuqorida qayd etilganidek, jazo choralar samarasi uncha muhim emas. Korruptsiyaga qarshi kurashda asosiy e’tibor uni oldini

olish choralariga qaratilishi kerak. Har qanday usul aholining ongidagi o'zgarishlarsiz samarasiz bo'lib qolaveradi. Ushbu yo'nalishdagi ishlar maktab yoshidan odob-axloq bo'yicha maqsadli ta'lim dasturlarini o'z ichiga oladi. Ular mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar keltiruvchi va aholi turmush darajasiga ta'sir salbiy ko'rsatuvchi korruptsiya harakatlarining yaqqol misollari va ularning oqibatlarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.